

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA ENGILSANOAT INSTITUTI

Qo'lyozma huquqida

UDK: 657.478.8:664(575.1)

MAXMUDOV SHERZOD

**«BOSHQARUV TIZIMIDA MOLIYAVIY HISOBOT VA TAHLILNI
TAKOMILLASHTIRISH»**

Mutaxassislik: 5A230901-«Buxgalteriya hisobi» (Paxta, to'qimachilik va engil sanoat)

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

D I S S E R T A T S I Y A

Ilmiy rahbar:

“ ____ ” _____ i.f.d., prof. Xashimov A.A.

TOSHKENT-2014

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
 I-BOB. BOSHQARUV TIZIMIDA MOLİYAVIY HISOBOT VA TAHLILINING NAZARIY ASOSLARI	
1.1. Boshqaruv tizimida moliyaviy hisobotni mohiyati, maqsadi va undan foydalanuvchilar.....	8
1.2. Buxgalteriya hisobining milliy standartlari asosida moliyaviy hisobot unsurlarini baholash tartibi.....	16
 II-BOB. “JUMA” PAXTA TOZALASH KORXONASINING MOLIYAVIY HISOBOT KO’RSATKICHLARINI TAKOMILLASHTIRISH AMALIYOTI	
2.1. Moliyaviy hisobot paxta tozalash korxonasini samarali boshqarishning vositasi sifatida.....	30
2.2. Paxta tozalash korxonalarining moliyaviy tahlil jarayoni uchun moliyaviy hisobot ko’rsatkichlarini shakllantirish.....	39
 III-BOB. PAXTA TOZALASH KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBİ XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA MOLIYAVIY HISOBOTINI TAKOMILLASHTIRISH	
3.1. Paxta tozalash korxonalarida milliy va xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobotni takomillashtirish.....	49
3.2. “Juma” paxta tozalash korxonasi OAJning moliyaviy hisoboti shakllarini tahlili.....	53
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	67
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI.....	70
ILOVALAR.....	73

KIRISH

Mavzuni dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining erkinlashtirilishi bilan bog'liq yangi iqtisodiy munosabatlar va iqtisodiyotimizda amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlar o'z samarasini bermoqda. Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganidek, "...Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8 foizga o'sdi, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8,8 foizga, qishloq xo'jaligi – 6,8 foizga, chakana savdo aylanmasi – 14,8 foizga oshdi. Inflyatsiya darajasi prognoz ko'rsatkichidan past bo'ldi va 6,8 foizni tashkil etdi.

O'tgan yil yakunlariga ko'ra, tashqi davlat qarzi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 17 foizni, eksport hajmiga nisbatan qariyb 60 foizni tashkil etdi. Bu avvalambor xorijiy investitsiyalar va umuman, chetdan qarz olish masalasiga chuqur va har tomonlama puxta o'ylab yondashish natijasidir.

Yurtimizda qabul qilingan 2011-2015 yillarda sanoatni ustuvor darajada rivojlantirish dasturi va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga doir tarmoq dasturlarining izchil amalga oshirilishi natijasida sanoat tarkibida yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan, raqobatdosh mahsulotlar tayyorlayotgan qayta ishlash tarmoqlarining o'rni tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining 78 foizdan ortig'i aynan ana shu tarmoqlar hissasiga to'g'ri kelmoqda. 2013 yilda yuqori texnologiyalarga asoslangan mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati 121 foizga, qurilish materiallari sanoati 113,6 foizga, engil sanoat 113 foizga va oziq-ovqat sanoati 109 foizga o'sgani misolida buni yaqqol ko'rish mumkin".

Shuningdek, mahsulot raqobatdoshligini ta'minlash uchun ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash bo'yicha katta va kichik loyihalarni izlash, buning uchun zarur mablag' va manbalarni topish – bu har bir korxona rahbari va

muhandis-texnik xodimlarining birinchi navbatdagi eng muhim vazifasi va majburiyati bo'lmog'i kerak¹.

Bunday ma'suliyatli vazifani hal etish boshqaruv jarayonining samaradorligini oshirishga, boshqaruv tizimini ishonchli va aniq axborotlar bilan ta'minlashga xizmat qiluvchi moliyaviy hisobotni buxgalteriya hisobining xalqaro hamda milliy standartlar talablari asosida tashkil etishni talab etadi.

Paxtachilik majmuasi aholini sifatli gazlama, kiyim-kechak, yog', sovun va qayta ishlash sanoatini xom ashyoga bo'lgan talabini qondiradi. Mulkchilik va xo'jalik yuritishni turli shakllarining paydo bo'lishi ichki va tashqi foydalanuvchilarni axborot bilan ta'minlash mabai bo'lgan – moliyaviy hisobotning oldiga ham iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitiga xos talablarni qo'ymoqda. Shuning uchun ham O'zbekistonda uni isloh qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda, uning usul va shakllari xalqaro standartlarga moslashtirilmoqda. Bu o'z navbatida ushbu sohada keng qamrovli va chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqazo qilmoqda.

Moliyaviy hisobotni tashkil qilish, uning uslubiy asoslarini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlarini tarmoqlar bo'yicha ishlab chiqarish zaruriyati kuchaymoqda. Respublikamizda Moliya vazirligi tomonidan moliyaviy hisobotni me'yoriy va huquqiy tartibga solishga qaratilgan bir qancha hujjatlar ishlab chiqildi va davlat ro'yxatidan o'tkazildi. Biroq, ularni tarmoqlar miqyosida Nizomlar, ichki standartlar shaklida soha xususiyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqish va qo'llash muammosi haligacha hal etilmagan.

Hozirgi sharoitda olingan axborot oliy sifatli va samarador, ham ichki, ham tashqi foydalanuvchilar talabini qondiradigan bo'lishi lozim. Bu shuni anglatadiki, moliyaviy hisobot axboroti ko'rsatkichlarning eng kam miqdoridan iborat bo'lishi, ammo boshqaruv ierarxiasining turli darajalaridagi uning foydalanuvchilaridan

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yunalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi" ma'ruzasi. Xalq so'zi gazetasi. 19.01.2014.

eng ko'p miqdorini qondirishi lozim. Taqdim etiladigan axborot zarur, muhim va maqsadga muvofiq bo'lishi, ortiqcha ko'rsatkichlarni istisno etishi kerak. Bundan tashqari, moliyaviy hisobot axboroti eng kam miqdorda mehnat va vaqt sarf qilgan holda shakllantirilishi lozim [3].

Mamlakatimizda paxta tozalash korxonalarining istiqbolli rivojlanishi, ushbu faoliyat bilan bog'liq bo'lgan muammolar hisobini samarali tashkil etish, mazkur masalalar echimini ilmiy asosda hal qilish alohida diqqatga sazovordir. Ushbu ob'ektiv jarayonlarning barchasi paxta tozalash korxonalarida moliyaviy hisobotni takomillashtirish, uning bozor munosabatlariga asoslangan, erkin iqtisodiyotga mos nazariy, uslubiy va tashkiliy muammolarini tadqiq etishni taqazo etadi. Yuqorida ta'kidlanganlarning barchasi mazkur tadqiqot ishi mavzusining yo'nalishini belgilaydi va dolzarbligidan dalolat beradi.

Mavzuni o'rganilganlik darajasi. Korxonalarda moliyaviy hisobotni uslubiy, nazariy va amaliy masalalarini tadqiq etishga mamlakatimiz olimlaridan A.Abduganiev, N.Jo'raev, A.Ibragimov, A.Karimov, R.Xolbekov, Z.Mamatov, N.Karimov, H.Musaev, N.Sanaev, B.Hasanov, A.Hoshimov, K.O'razov va boshqalarni ilmiy ishlari bag'ishlangan.

Tadqiqot ob'ekti bo'lib «O'zpaxtasanoat» uyushmasi tarkibiga kiruvchi paxta tozalash korxonalarini moliyaviy hisoboti hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti bo'lib paxta tozalash korxonalarida moliyaviy hisoboti va tahlilini mexanizmlari va omillari hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi. Iqtisodiyotni globallashtirish sharoitida paxta tozalash korxonalari moliyaviy hisobotini buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari talablari asosida tashkil etish va uni takomillashtirish yo'llarini ilmiy asoslab berishdir.

Tadqiqot vazifasi. Ilmiy ishning asosiy vazifalari qo'yidagilardan iborat:

-Iqtisodiyotni globallashtirish sharoitida moliyaviy hisobotning mohiyatini ochib berish;

- Buxgalteriya hisobining milliy standartlari asosida moliyaviy hisobot unsurlarini baholash tartibi va uning asosiy tamoyillari o'rganish;

-Moliyaviy hisobot ishonchliligini ta'minlovchi omil sifatida buxgalteriya hisobi schetlari va hisob registrlaridagi yozuvlarga asoslanganligini tekshirishni takomillashtirish;

-Korxonaning moliyaviy hisobotini o'rganish va u belgilangan muddatlarda topshirilishi ta'minlan tekshiruvini takomillashtirish;

-Milliy va xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobotni takomillashtirish.

Tadqiqot uslublari. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil qilish, ekspert baholash va boshqa usullardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati iqtisodiyotni globalashtirish sharoitida paxta tozalash korxonalarida moliyaviy hisobotning mohiyati, ichki va tashqi foydalanuvchilar uchun asosiy axborot manbai ekanligini asoslab berilganligi korxonaning moliyaviy hisobotini tayyorlash va uni belgilangan muddatlarda topshirilishi hamda ishonchliligini ta'minlashda, milliy va xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobotni takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Tadqiqot ishining ilmiy yangiliklari qo'yidagilardan iborat:

-Iqtisodiyotni globalashtirish sharoitida moliyaviy hisobotning mohiyati, ichki va tashqi foydalanuvchilar uchun asosiy axborot manbai ekanligini asoslab berildi;

- Buxgalteriya hisobining milliy standartlari asosida moliyaviy hisobot unsurlarini baholash tartibi va uning asosiy tamoyillari tizimlashtirildi;

-Moliyaviy hisobot ishonchliligini ta'minlovchi omil sifatida buxgalteriya hisobi schetlari va hisob registrlaridagi yozuvlarga asoslanganligini tekshirishni takomillashtirish bo'yicha takliflar berildi;

-Paxta tozalash korxonalarining moliyaviy hisobotini tayyorlash va uni belgilangan muddatlarda topshirilishini ta'minlash tekshiruvi takomillashtirildi;

-Milliy va xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobotni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Tadqiqot ishining umumiy hajmi 73 bet bo'lib, 12 ta jadval va 6 ta rasmlarni o'z ichiga oladi.

I-BOB. BOSHQARUV TIZIMIDA MOLIYAVIY HISOBOT VA TAHLILINING NAZARIY ASOSLARI


1.1. Boshqaruv tizimida moliyaviy hisobotni mohiyati, maqsadi va undan foydalanuvchilar

Moliyaviy hisobot - hisob jarayonining yakunlovchi bosqichi bo'lib, korxonalar faoliyatini ma'lum bir davrga (kunga) yakunini aks ettiruvchi jadvallar yig'indisidan iborat. Moliyaviy hisobotning shakllari va undagi ko'rsatkichlar davlat tomonidan, ya'ni moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Korxonalarni samarali boshqarish uning xo'jalik faoliyati, aktivlarning holati va ulardan foydalanish, xo'jalik kapitali va majburiyatlari to'g'risida to'la iqtisodiy axborotni tezkorlik bilan olish va foydalanishni taqoza qiladi. Korxonalar o'z faoliyati ustidan kundalik nazoratni hujjatlar va hisobot registrlariga asosan olib boradilar. Lekin uzoq vaqt (oy, chorak, yil) davomida xo'jalik faoliyatining yakunini bilish uchun bu ma'lumotlar etarli emas. Ularni umumlashtirish va tizimga keltirish zarur. Ushbu axborotlarni olishning asosiy manbai buxgalteriya hisoboti, shu jumladan moliyaviy hisobot hisoblanadi.

Hozirgi kunda «Buxgalteriya hisobi to'g'risida» gi qonunning 16-moddasiga asosan, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2002-yil 27-dekabrdagi 140-sonli buyrug'iga asosan moliyaviy hisobotning quyidagi shakllari mavjud (1.1.1-rasm):


- "1. Buxgalteriya balansi (1-shakl)
2. Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot (2-shakl)
3. Pul oqimlari to'g'risida hisobot (4-shakl)
4. Xususiy kapital to'g'risida hisobot (5-shakl).



1.1.1-rasm. Paxta tozalash korxonasining moliyaviy hisobotini tayyorlash va taqdim etish bo'yicha tegishli xujjatlari

Paxta tozalash korxonalarida hisobot hisobning turlariga qarab bo'linadi (1.1.2-rasm):

1. Operativ(tezkor) hisobot.
- 2.Statistik hisobot.
3. Buxgalteriya hisoboti.



1.1.2-rasm. Yillik hisobot shakllari turi

Buxgalteriya hisoboti korxonalarning mulkini, majburiyatlarini va moliyaviy natijalarini qiymat o'lchovida aks ettirib, buxgalteriya hisobi ma'lumotlari asosida tuziladi. U navbatida buxgalteriya hisobotini:

- Moliyaviy hisobotga;
- Boshqaruv hisobotiga bo'lish mumkin.

Statistik hisobot korxonalarning alohida ko'rsatkichlari haqida ham qiymat, ham natura ma'lumotlarni aks ettiradi va statistika, buxgalteriya va operativ hisob ma'lumotlari asosida tuziladi.

Operativ hisobot qisqa davr ichida korxonalar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari haqida ma'lumot berib, operativ hisob ma'lumotlari asosida tuziladi.

Moliyaviy hisobot topshirilish davriga(tuzish muddatiga) qarab bo'linadi:

- 1.Davriy moliyaviy hisobotlar.
- 2.Yillik moliyaviy hisobotlar.

Davriy moliyaviy hisobotga «Buxgalteriya balansi», «Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot», «Pul oqimlari to'g'risida hisobot» shakllari kiradi.

Ushbu hisobot shakllari, qolgan hisobot shakllari bilan birga yillik moliyaviy hisobot tarkibini ham tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonunning 1-moddasida «Buxgalteriya hisobi va hisobotni tuzish bilan bog'lik bo'lgan munosabatlar ushbu qonun va boshqa qonun xujjatlari bilan tartibga solinadi» deyilgan [3]. Qonunning 2-moddasiga binoan "Buxgalteriya hisobining maqsadi foydalanuvchilarni o'z vaqtida to'liq hamda aniq moliyaviy va boshqa buxgalteriya axborotlari bilan ta'minlashdir"[5]. Buxgalteriya hisobining asosiy vazifalaridan biri bo'lib moliyaviy, solik va boshqa hisobotlarni o'z vaqtida tayyorlash hamda foydalanuvchilarni o'z vaqtida ta'minlash hisoblanadi.

Shu bilan birga hozirgi paytda moliyaviy hisobot nafaqat aniq iqtisodiyot sub'ekti faoliyati bilan tanishtiruvchi, balki tashqi iqtisodiy muhit ko'rsatkichlarining barcha sohalarini yorituvchi, alohida olingan korxona ish natijalarining ommaviy iqtisodiy sharoit talablari va mezonlariga muvofiqlik darajasi to'g'risida ma'lumot beruvchi ishbilarmonlik axborotiga talab kundan-kunga oshib bormoqda. Biroq moliyaviy hisobot iqtisodiyot sub'ekti bozordagi ahvolini baholash borasidagi jihatlari, foydalanuvchilarning muayyan guruhlarini ishonchli moliyaviy hisobot axborotlariga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlashga, iqtisodiy muhitni aniq ishlashga, korxona tuzilmalarining hisob siyosatidagi tafovutlar sababli yuzaga keladigan axborotlar xilma-xilligini moslashtirishga qaratilgan, shuningdek biznesning sohaviy xususiyatlarini va raqobat sohalarining o'ziga xosliklarini hisobga oluvchi moliyaviy ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish masalalarini ham kengroq yoritishi lozim bo'ladi.

Shuning uchun haqqoniy va talab darajasidagi moliyaviy hisobotlarga ega bo'lish uchun hisob-kitoblardagi mavjud kamchiliklarni tugatib ularni qonun talablari darajasida tashkil etishga erishish lozim.

Shunga erishish lozimki, korxonaning moliyaviy hisoboti uning faoliyati xaqidagi haqiqiy axborot manbai bo'lib xizmat kilsin. Unga talabni oshishi shu bilan ham bog'likki u mulk egalari va korxona boshqaruachilariga asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilishga asos bo'lishi lozim.

Buxgalteriya hisobining 1-son milliy standartga muvofiq «Moliyaviy hisobot korxona alohida mustaqil korxonaligi yoki korxonalarning jamlangan guruxiga kirishidan kat'iy nazar shu korxonaning ma'lum bir davrdagi faoliyatini ko'rsatuvchi moliyaviy axborotni taqdim etish usulidir» [6].

Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etishning kontseptual asosiga ko'ra moliyaviy hisobotning maqsadi korxonaning moliyaviy ahvoli, faoliyati, moliyaviy ahvolidagi o'zgarishlar to'g'risidagi axborotni taqdim etishdan iborat. Birok moliyaviy hisobot iqtisodiy qarorlar qabul qilish uchun foydalanuvchilarga zarur bo'lgan butun axborotni o'z ichiga olmaydi, chunki hisobot asosan avvalgi voqealarning natijalarini aks ettiradi.

Moliyaviy hisobot quyidagilar uchun ham axborotni saqlaydi:

- Investitsiya qarorlarini va kreditlar berishga doir qarorlarni qabul qilish;
- Korxonaning bo'lg'usi pul oqimiga baho berish;
- Korxonaga ishonib topshirilgan resurslar munosabati bilan uning resurslariga, majburiyatlariga baho berish;
- Rahbar organlarning ishiga baho berish.

O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida» Qonunining 7-moddasida «Buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etishni korxona, muassasa va tashkilotni rahbari amalga oshiradi» degan talabdan kelib chikib korxonaning rahbari moliyaviy hisobotning tuzilishi va taqdim etilishi uchun javobgar hisoblanadi [3]. Korxona rahbari korxonani boshqarish uchun zarur bo'ladigan axborotlarga ehtiyojlarini qondirish maqsadida qo'shimcha axborotning shakli va mazmunini belgilash huquqiga ega.

Moliyaviy hisobot moliyaviy hisobning yakuniy bosqichi hamda tarkibiy qismi hisoblanadi va ularni tuzishda tegishli buxgalteriya hisobi milliy standartlari talablariga rioya kilinadi.

Moliyaviy hisobotlar korxonaning rahbariyati tomonidan resurslarni boshqarish natijalarini ko'rsatadi.

Moliyaviy hisobotlarda quyidagi axborotlar ham bo'lishi kerak:

- Korxona nazorati ostidagi aktivlar to'g'risida (nakd pul mablag'i tushumlari yoki boshqa aktivlar);
- Korxonaning majburiyatlari to'g'risida;
- Korxonaning iqtisodiy resurslariga o'zgartish kiritadigan taqsimlanmagan foyda to'g'risida;
- Pul mablag'larining harakati to'g'risida (kelgusidagi harakati).

Bunday axborot korxonaning dividendlar va foizlarni to'lash, shuningdek majburiyatlar bo'yicha o'z vaqtida hisob-kitob qilish imkoniyatlarini baholash uchun moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar uchun zarur bo'ladi.

Moliyaviy hisobot ma'lumotlaridan korxona boshqaruvchilari, kreditorlar, mol etkazib beruvchilar, xaridorlar va davlat organlari foydalanadilar. Jumladan, 26.07.1998 yilda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan, 14.08.1998 yilda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi milliy standarti «Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etishning kontseptual asosi» ning 9-bandiga asosan moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarga «Haqiqiy va bo'lgusi investorlar, kreditorlar, mahsulot etkazib beruvchilar, xaridorlar, xodimlar, shuningdek hukumat muassasalari, vazirliklar, jamoatchilik va boshqa manfaatdor foydalanuvchilar» kiradi [6].

Korxonalarda moliyaviy hisobot shakllaridan boshqa korxonaning ichki hisobot shakllaridan foydalanuvchi bo'lib korxonaning rahbari va a'zolari hisoblanadi.

Hisobot ma'lumotlari asosida korxonalarning moliya-xo'jalik faoliyati tahlil qilinadi, foydalanilmayotgan rezervlar aniqlanadi va yo'l-qo'yilgan kamchiliklar sababi aniqlanib, kelgusida yo'l qo'ymaslik belgilab olinadi.

Bundan tashqari korxonalarda moliyaviy hisobot ma'lumotlaridan rejalashtirishda, ya'ni biznes-rejalar tuzishda ham foydalaniladi.

Hisobot ma'lumotlari asosida korxonalarning iqtisodiy ko'rsatkichlari va uning iqtisodiy holati to'g'risida ta'minotchilar, xaridorlar, investorlar va

kreditorlar ham ma'lumotlarga ega bo'ladilar va shunga asosan korxonalar bilan iqtisodiy munosabatda bo'ladilar.

Moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarga haqiqiy va bo'lg'usi investorlar, kreditorlar, mahsulot etkazib beruvchilar, xaridorlar, xodimlar, shuningdek hukumat muassasalari, vazirliklar, idoralar, jamoatchilik va boshqa manfaatdorlar bo'lganligi uchun, moliyaviy hisobot axborotiga ehtiyoj quyidagilarda vujudga keladi:

- Berilgan investitsiyalar bilan bog'liq xatarlar munosabati bilan investorlarda, aktsiyadorlarda hamda ular korxonaning dividendlarni to'lash qobiliyatini baholashga imkon beradigan va aktsiyalarni sotib olish, saqlash yoki sotish kerakligini belgilashga ko'maklashadigan axborotdan manfaatdordirlar;

- Kredit va foizlar o'z vaqtida to'lanishi yoki to'lanmasligini aniqlashga imkon beradigan axborotdan manfaatdor bo'lgan kreditorlarda;

- O'zlariga tegishli summa o'z vaqtida to'lanishini aniqlashga imkon beradigan axborotdan manfaatdor bo'lgan mahsulot etkazib beruvchilar va boshqa savdo kreditorlari;

- Korxonaning uzluksiz faoliyati to'g'risidagi axborotdan manfaatdor bo'lgan xaridorlar, ayniksa ular uzoq muddatli bitimga ega bo'lsalar yoki mazkur korxonaga bog'liq bo'lsa;

- Korxonalarning faoliyati barqarorligi va rentabelligi to'g'risidagi axborotdan manfaatdor bo'lgan xodimlar. Ular korxonaning ish xaqi, pensiya va kelajakda ham yollanib ishlash imkoniyatini ta'minlash qobiliyatiga baho berish imkonini yaratadigan axborotdan manfaatdordirlar.

- Resurslarni taqsimlanishi va binobarin sub'ektlarning faoliyati to'g'risidagi axborotdan manfaatdor bo'lgan davlat boshqaruvi organlari. Ularga korxonaning faoliyatini tartibga solib turish, soliqqa tortish siyosatini belgilash uchun va milliy daromadni hamda boshqa statistik ma'lumotlarni aniqlash uchun asos sifatida ham axborotlar kerak.

- Jamoatchilikda ham, chunki korxonalar mahalliy iqtisodiyotga ko'pgina usullar bilan, shu jumladan aholini ish bilan ta'minlash va mahalliy mahsulot etkazib beruvchilarni qo'llab-quvvatlash bilan katta hissa qo'shishi mumkin. Moliyaviy hisobot jamoatchilikni korxonalarning farovonligini yaxshilash to'g'risidagi axborot bilan ta'minlab yordam beradi.

Moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar qabul qiladigan iqtisodiy qarorlar korxonaning pul mablag'larini ko'paytirish, ularni ko'payishi vaqtini hisob-kitob qilish va natijaga erishishga umid qilishdagi qobiliyatini baholashni talab qiladi. Bunday qobiliyat korxonani o'z xodimlari va mahsulot etkazib beruvchilarga hak to'lay olishi, foizlar to'lovi va kreditlarni uza olishi, foydani taqsimlay olishini aniqlaydi.

Agar hisobotdan foydalanuvchilar korxonaning moliyaviy ahvoli faoliyatini va moliyaviy ahvoldagi o'zgarishlarni aks ettiradigan axborotlar bilan ta'minlangan bo'lsa pul mablag'larini ko'paytirish qobiliyatini yaxshirok baholaydilar.

Korxona nazorat qilib turadigan iqtisodiy resurslar haqidagi va uning shu resurslarni qayta ishlash qobiliyati to'g'risidagi axborotlar korxonaning kelgusida pul mablag'larini va ularning ekvivalentini ko'paytirish imkoniyatini prognozlash uchun zarurdir. Moliyaviy ahvol haqidagi axborot kelgusida kreditlarga bo'lgan extiyojini aniqlash uchun, shuningdek keladigan daromadlar bilan pul oqimlarini korxonaning aksiyalariga (payiga) ega bo'lganlar o'rtasida taqsimlashda zarurdir, shuningdek korxona keyinchalik o'zining moliyaviy ahvolini kanchalik muvaffaqiyat bilan yaxshilay olishini aniqlash uchun zarurdir. Likvidlik va to'lov qobiliyat haqidagi axborot korxonaning moliyaviy majburiyatlarini vaqtida to'lay olishini aniqlash uchun zarurdir. Likvidlik yaqin kelgusida ana shu davr ichidagi moliyaviy majburiyatlarni to'lash uchun pul mablag'larini mavjudligini anglatadi. To'lov qobiliyati moliyaviy majburiyatlarni o'z vaqtida to'lash uchun pul mablag'lari mavjudligini anglatadi.

Korxonaning faoliyati ko'rsatkichlari, uning rentabelligining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risidagi axborot iqtisodiy resurslardagi potentsial o'zgarishlarni baholash uchun talab etiladi. Bunday axborot kelgusida nazoratni amalga oshirishga imkon beradi, shuningdek korxonaning faoliyatidagi o'zgarishlar haqidagi muhim axborot hamdir.

Faoliyat haqidagi axborot korxonaning mavjud resurslari bazasidan pul mablag'lari to'lay olishini prognozlash uchun zarur, bu esa korxona qo'shimacha resurslarini jalb qilishi mumkin bo'lgan samaradorlikka baho berishni shakllantirishda muhim.

Pul oqimlari haqidagi axborot xo'jalik sub'ektning pul mablag'larini jalb qilish qobiliyatiga baho berish uchun zarur, bu esa foydalanuvchilarga har xil korxonalarning pul oqimlarini baholash va taqqoslash uchun yangi usullar ishlab chiqishga imkon beradi.

Moliyaviy hisobotlar o'zaro bir-biri bilan bog'langan, chunki ular xo'jalik faoliyatiga doir bir xil holatlarning har xil jihatlarini aks ettiradi. Har bir hisobot bitta maqsadga xizmat qilmaydigan va foydalanuvchilarning muayyan ehtiyojlarini aniqlash uchun zarur bo'lgan butun axborotni bermaydi. Masalan, moliyaviy – xo'jalik faoliyatning natijalari to'g'risidagi hisobot, agar undan buxgalteriya balansi va pul oqimlari to'g'risidagi hisobot bilan uyg'unlikda foydalanilmasa, faoliyatning yaxli holatini aks ettirmaydi.

1.2. Buxgalteriya hisobining milliy standartlari asosida moliyaviy hisobot unsurlarini baholash tartibi

Respublikamizda buxgalteriya hisobotini milliy standartlar asosida takomillashtirish va xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish bo'yicha olib borilayotgan dasturiy tadbirlar buxgalteriya hisoboti tizimini isloh qilishning asosiy maqsadi - buxgalteriya hisobotini iqtisodiyotni erkinlashtirish talablariga

moslashtirish yo'nalishlarini belgilab beradi. Mazkur jarayon buxgalteriya hisobotini me'yoriy tartibga solish, buxgalteriya xizmati mutaxassislarini tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish masalalarini o'z ichiga oladi.

Bizning fikrimizcha, buxgalteriya hisobotini milliy standartlar asosida takomillashtirish va xalqaro standartlarga o'tkazish quyidagi afzalliklarni beradi:

- birinchidan, mamlakatimiz korxonalarining xalqaro iqtisodiy hamkorlikka integratsiyalashuvi va investitsiya bozorida faoliyat ko'rsatishiga hamda xorijiy investitsiyalarni jalb etishga imkon beradi;

- ikkinchidan, jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, xalqaro standartlarga muvofiq shakllantirilgan moliyaviy hisobotlar yuqori axborot hajmiga va foydalanuvchi uchun katta samaradorlikka ega;

- uchinchidan, xalqaro standartlardan foydalanish iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida yangi milliy hisobot tamoyillarini ishlab chiqishga sarflanadigan vaqt hamda resurslarni tejash imkonini beradi (1.2.1-jadval).

1.2.1-jadval

Paxta tozalash korxonalarida moliyaviy hisobotni taqdim etish davriyligi

Moliyaviy hisobot shakli	Taqdim etishning davriyligi
Buxgalteriya balansi – 1-shakl	har chorakda
Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot –2-shakl	har chorakda
Pul oqimi to'g'risida hisobot – 4-shakl;	har yarim yillikda
Xususiy kapital to'g'risida hisobot – 5-shakl;	yillik
Izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlar	yillik
Tushuntirish xati	

Moliyaviy hisobotlar moliyaviy natijalarni va boshqa xo'jalik operatsiyalarini aks ettiradi, ularni moliyaviy hisobotda aktivlar, xususiy kapital, majburiyatlar, daromadlar, xarajatlar, moliyaviy natijalar, rezervlar shaklida unsurlarga guruxlash qabul kilingan.

Aktivlar, xususiy sarmoya va majburiyatlar buxgalteriya balansida korxonaning moliyaviy natijalarini aniqlash bilan bog'liq bo'lgan unsurlardir. Daromadlar va xarajatlar faoliyat natijalari to'g'risidagi hisobotda korxonaning ko'rsatkichlarini aniqlash bilan bevosita bog'liq bo'lgan unsurlardir.

Aktivlar, majburiyatlar, xususiy sarmoya, rezervlar, daromadlar va xarajatlar moliyaviy holatni aniqlash bilan bevosita bog'liq unsurlardir (1.2.2-jadval).

1.2.2-jadval

Buxgalteriya balansi umumiy xolda quyidagi shaklga ega

AKTIV			PASSIV		
Bo'lim va moddalar nomi	Hisobot davr boshiga	Hisobot davr oxiriga	Bo'lim va moddalar nomi	Hisobot davr boshiga	Hisobot davr oxiriga
I. Uzoq muddatli aktivlar asosiy vositalar			I. Uz mablag'lari-ning manbalari ustav kapitali		
II. Joriy aktivlar			II. Majburiyatlar		
2.1 Ishlab chiqarish zaxiralari Tayyor maxsulot			2.1 Uzoq muddatli qarzarlar va kreditlar		
2.2 Pul mablag'lari Kassadagi pul mablarlari			2.2 Qisqa muddatli qarzarlar va kreditlar		
2.3 Debitorlik qarzlari xaridor va buyurtmachilar bilan hisoblashishlar			2.3 Kreditorlik qarzlari. Mol etkazib beruvchilar		
Balans aktivi jami			Balans passivi jami		

Unsurlar quyidagi tarzda aniqlanadi:

Aktivlar – korxona nazorat qiladigan, kelgusida ulardan daromad olish maqsadida avvalgi faoliyat natijasida olingan iqtisodiy resurslardir.

Aktivlar – korxonaning qiymat bahosiga ega bo'lgan moddiy, shu jumladan pul mablag'lari, debitorlik qarzlari va nomoddiy mulkdir.

Korxonaning aktivlari avvalgi bitimlar va boshqa voqealarning natijasidir. Korxonalar aktivlarni sotib olib yoki hosil qilib unga ega bo'ladilar, biroq boshqa

bitimlar va voqealar aktivlarni ko'paytirishga imkon beradi. Masalan, korxona xukumatdan olgan ko'chmas mulk. Kelgusida kutiladigan bitimlar va boshqa voqealar aktivlarning o'zidan-o'zi paydo bo'lishiga olib kelmaydi.

Korxona o'z aktivlaridan mulkni, tovar-moddiy zahiralarni ishlab chiqarishni va xizmatlar ko'rsatilishini boshqarish uchun foydalanadi.

Aktivlarda aks ettirilgan bo'lg'usi iqtisodiy naf korxona tomonidan quyidagi yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin:

- Tovarni-moddiy zahiralarni ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishda alohida yoki boshqa aktivlar bilan birgalikda foydalanilishi;
- Boshqa aktivlarga almashtirilishi;
- Majburiyatlarni bajarish uchun foydalanilishi;
- Korxonaning egalari o'rtasida taqsimlanishi.

Aktivlar binolar, inshootlar, uskunalar hamda patentlar va mualliflik huquqlari shaklida bo'lishi mumkin.

Debitorlik qarzlari kabi aktivlar va mulk yuridik huquqlar, shu jumladan egalik huquqi bilan bog'liq. Aktiv mavjudligini aniqlashda egalik huquqi asosiy hisoblanmaydi. Masalan, ijaraga olinadigan mulk aktiv hisoblanadi, agar xo'jalik sub'ekti ana shu mulkdan olinishi kerak bo'lgan foydani nazorat kilsa.

Xarajatlarni amalga oshirish bilan aktivlarni hosil qilish o'rtasida uzviy aloqa mavjud, ammo bu jarayonlar vaqti bo'yicha har doim ham to'g'ri kelmaydi. Korxona tomonidan amalga oshirilgan xarajatlar bo'lg'usi iqtisodiy naf izlanganidan dalolat beradi, lekin aktivlar olinganini uzil-kesil tasdiqlamaydi. Binobarin, xarajatlarning mavjud emasligi ob'ektni sub'ektiga tekinga berilgan ob'ektlar aktivlarni ta'riflashga mos keladi.

"Majburiyatlar – shaxsning (qarzdorning) boshqa shaxs (kreditor) foydasiga muayyan ishni amalga oshirish, masalan, mol-mulkni topshirish, ishni bajarish, pul to'lash va boshqa majburiyatlari"[6]. Korxona boshqa korxonalar va jismoniy shaxslar oldida mas'uliyatli ekanligi majburiyatning asosiy Xozarasp ptzishidir.

Majburiyatlar ustavning yoki shartnomaning talablari oqibati sifatida kuchga kirishi mumkin.

Hozirgi majburiyat bilan kelgusi majburiyat o'rtasida chegara bo'lishi kerak. Korxona rahbarining kelgusida aktivlarni sotib olish haqida qabul qilgan qarori majburiyat paydo bo'lishga sabab bo'lmaydi. Majburiyat odatda aktiv olinganda yoki korxona aktivni sotib olish to'g'risida bitimga kirishgandagina paydo bo'ladi. Majburiyatlarning bajarilishi har xil usullarda (qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan hollarda) amalga oshiriladi:

- Haq to'lash bilan;
- Boshqa aktivlarni berish bilan;
- Xizmatlarni ko'rsatish bilan;
- Ushbu majburiyatlarni boshqasi bilan almashtirish orqali;
- Majburiyat, kreditor o'z huquqlaridan bosh tortgan hollarda yoki kreditor


ana shu huquqlaridan maxrum bo'lganda, bajarilgan deb hisoblanishi mumkin.

Xususiy kapital – sub'ektning majburiyatlarni chegirib tashlagandan keyingi aktivlaridir. Xususiy kapital, ustav, qo'shilgan, rezerv kapitalidan va taqsimlanmagan foydadan iborat. Zarur hollarda ustav, qo'shilgan, rezerv kapitali tahliliy jihatdan hisobga olinadi.

Buxgalteriya balansida xususiy kapitalning miqdori aktivlar qiymatini va majburiyatlarni baholashga bog'liqdir.

Rezervlar – kelgusida muayyan xarajatlarga sarflanishi mumkin bo'lgan xususiy kapitalning bir kismidir.

Korxonani va kreditorlarni zararlarning oqibatlaridan qo'shimcha tarzda himoya qilishni ta'minlash uchun rezervlarni vujudga keltirish zarur. Rezervlarni qabul qilish va ularning miqdori haqidagi axborot qarorlar qabul qilishda foydalanuvchilar uchun ahamiyatlidir. Rezervlarni vujudga keltirish korxonaga doir qonunchilikda va ustavda (soliq qonunlarini buzmaganda) ko'zda tutiladi (1.2.1-rasm).



1.2.1-rasm. Moliyaviy natijalarni shakllantirish

Daromadlar – hisobot davrida aktivlarning ko'payishi yoxud majburiyatlarning kamayishidir.

Yangi daromad korxonaning asosiy va asosiy bo'lmagan faoliyatidan olingan daromadlarni o'z ichiga oladi. Asosiy faoliyatdan daromad mahsulot, ishlar, xizmatlar, tovar-moddiy zahiralar, boshqa aktivlarni sotishdan, shuningdek mukofotlar, foizlar va dividendlar, gonorarlar va korxonaning asosiy faoliyatiga bog'liq bo'lgan rentadan olinishi mumkin.

Birjada muomalada bo'ladigan qimmatli qog'ozlarni qayta baholash va boshqalar asosiy bo'lmagan faoliyat natijasida paydo bo'ladigan daromadlarga kiradi. Bunday daromadlar, agar moliyaviy natijalar haqidagi hisobotda e'tirof etilsa, alohida ko'rsatiladi, chunki iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda ular haqidagi axborot foydali bo'lishi mumkin.

Solliqqa tortiladigan daromad (zarar) solliq qonunlariga muvofiq belgilangan hisobot davridagi daromad (zarar) summasidir.

Xarajatlar – hisobot davrida aktivlarning kamayishi yoxud majburiyatlarning ko'payishidir.

Xarajatlar belgilangan mulkni, ishlab chiqarishni boshqarish bilan hamda mahsulot sotish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish va zararlar bilan bog'liq. Ular odatda pul mablag'lari, moddiy zahiralari, inshootlar, uskunalar va boshqalar singari aktivlarning chiqishi va ulardan foydalanilishi shaklida bo'ladi.

Zararlar iqtisodiy nafning kamayganligini bildiradi va o'z tabiatiga ko'ra boshqa xarajatlardan farq qilmaydi. Zararlar boshqa aktivlarni sotishda yoki tabiiy ofatlar natijasida yuzaga kelishi mumkin. Bunday zararlar moliyaviy natijalar haqidagi hisobotda ko'rsatiladigan bo'lsa, ular haqidagi axborot iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda foydali bo'lishi mumkin va shuning uchun ham ular aloxida ko'rsatiladi.

Moliyaviy natijalar – korxonaning foyda yoki zarar shaklida ifodalangan faoliyatining pirovard iqtisodiy yakunidir.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot soliqqa tortilishgacha va undan keyingi moliyaviy xo'jalik faoliyatidan olingan daromadni ko'rsatadi.

Omonat egalarining xususiy kapitalga ulushlari – daromad hisoblanmaydi; xususiy kapitalning egalari o'rtasida taqsimlanishi xarajat hisoblanmaydi.

Aks ettirish – buxgalteriya balansi yoki moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotga unsur aniqlanishiga javob beradigan va ularda aks ettirilishi lozim bo'lgan moddalarni kiritilish jarayonidir. Aks ettirish jarayoni moddaning bayonini ham, uni puldagi ifodasini ham o'z ichiga oladi, shuningdek u ushbu moddaning buxgalteriya balansiga yoki moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotga kiritilishidir. Moddaning aks ettirish mezoniga muvofiqligini aniqlash va uni malakali aniqlanishida e'tiborni ahamiyatlilik va taqqoslash tamoyillariga karatilishi lozim.

Unsurlar o'rtasidagi bog'liqlik moddani alohida unurni aks ettirish ta'rif va mezoniga javob berishini anglatadi. Masalan, aktivni aks ettirilishi o'z-o'ziga daromad yoki majburiyatning boshqa unsurini aks ettirishni talab qiladi.

Aktivni aks ettirish - ushbu aktivdan foydalanish natijasida xo'jalik yuritish sub'ektiga bo'lgusi iqtisodiy naf tushish ehtimoli mavjud bo'lganida ushbu aktiv buxgalteriya balansida aks ettiriladi va aktiv aniq ifodalanadigan chiqimlar yoki qiymatini o'z ichiga oladi.

Majburiyatlarni aks ettirish - majburiyatlar o'zida iqtisodiy nafni ifodalovchi resurslar oqimi ehtimoli mavjud bo'lganida buxgalteriya balansida e'tirof etiladi, shuningdek ular majburiyatlarni qabul qilish natijasidir.

Daromadni aks ettirish - aktivlarni ko'payishi va majburiyatlarning kamayishi bilan bog'liq bo'lgusi iqtisodiy nafni o'lchangan ko'payishi paydo bo'lganda, daromad moliyaviy natija to'g'risidagi hisobotda aks ettiriladi. Bu daromadni aks ettirishi aktivlarning ko'payishi va majburiyatlarning kamayishini aks ettirish bilan bir vaqtda amalga oshishini bildiradi (masalan, tovarlar va xizmatlarni sotishda yuzaga keladigan aktivlardagi sof ko'payish yoki kreditor qarzdan bosh tortishi natijasida majburiyatlarni kamayishi).

Xarajatlarni aks ettirish - xarajat aktivlarning kamayishi va majburiyatlarning ko'payishi bilan bog'liq bo'lgusi iqtisodiy nafning o'lchangan kamayishi paydo bo'lganda moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda aks ettiriladi va bu ishonchli tarzda belgilanishi mumkin. Bu esa xarajatlarni aks ettirish majburiyatlardagi ko'payishi yoki aktivlarning kamayishini aks ettirish bilan bir vaqtda yuzaga kelishini anglatadi.

Moliyaviy hisobotlar unsurlarini baholash. Baholash – aktivlar va majburiyatlar e'tirof etiladigan va moliyaviy hisobotlarda qayd etiladigan pul o'lchovi usulidir. Moliyaviy hisobotlarda baholashning quyidagi usullaridan foydalaniladi [5]:

- Boshlang'ich qiymat. Aktivlar sotib olish vaqtida erishilgan tomonlarning o'zaro kelishuviga ko'ra belgilangan joriy qiymat bo'yicha aks ettiriladi. Majburiyatlar majburiyatni bajarguncha to'lanadigan pul mablag'lari summasi bo'yicha majburiyatlarga almashib olingan mablag'lar summasida aks ettiriladi.

- Joriy qiymat. Aktivlar hisobotda endigina sotib olingan aktiv va shunga o'xshashlarga to'lanishi kerak bo'lgan pul mablag'lari summasi bo'yicha aks ettiriladi. Majburiyatlar majburiyatni to'lash uchun talab etiladigan pul mablag'larining diskontlanmagan summasida aks ettiriladi.

- Sotish qiymati. Aktivlar sotishdan olinishi mumkin bo'lgan pul mablag'lari summasi bo'yicha aks ettiriladi. Majburiyatlar ularni to'lash qiymati bo'yicha aks ettiriladi, bunday qiymat esa majburiyatlarni to'lash uchun talab etiladigan pul mablag'larining diskontlanmagan summasidir.

- Diskontlangan qiymat. Diskontlar korxonaning oddiy faoliyati davomida aktivlarni ko'paytirishi lozim bo'lgan bo'lgusi pul mablag'lari tushumining diskontlangan qiymati bo'lgan joriy qiymat bo'yicha aks ettiriladi. Diskont – inglizcha "discount", italyancha "sconto" – hisoblamok.

Majburiyatlar kelgusida o'tkaziladigan pul mablag'larining diskontlangan qiymatidan iborat bo'lgan, korxonaning oddiy faoliyat davomida majburiyatlarni to'lash uchun foydalanishi mumkin bo'lgan joriy qiymat bo'yicha aks ettiriladi.

- Balans qiymati – hisobot sanasida buxgalteriya balansida aktivlar va majburiyatlarni aks ettirish qiymatidir.

Korxonalar moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda boshlangich qiymatni baholash uchun asos qilib oladilar. Undan odatda baholashning boshqa asosiy tushunchalari bilan birgalikda foydalaniladi.

Moliyaviy hisobotlarni tayyorlanishi, tuzilishi, ma'lumotlarni aks ettirilishi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- Hisoblash. Aktivlar, passivlar, xususiy kapital, xo'jalik operatsiyalari va voqealar, daromadlar va xarajatlar buxgalteriya hisobida e'tirof etiladi va amalga oshish davriga (yoki haqiqatda olingan davriga), pul mablag'larini olish yoki to'lash davriga emas, moliyaviy hisobotda aks ettiriladi.

- Ikki yoklama yozuv usulida hisob-kitoblarni yuritish. Xo'jalik yuritish sub'ektlarni buxgalteriya operatsiyalarini ikki yoklama yozuv tizimi (bir schyotni debeti va ikkinchi schyotning krediti bo'yicha) asosida kayd etilish kerak.

- Uzluksizlik. Korxonai uzluksiz ishlaydigan, ya'ni kelajakda ishlarni davom ettiradigan sub'ekt deb hisoblanadi, uning uz faoliyatini tugatish yoki faoliyat kulamini ancha kiskartirish niyati xam, zarurati xam yuk deb karaladi.

Agar rahbar korxonani tugatish yoki uning faoliyati ko'lamlarini qisqartirish zarur deb hisoblasa yoxud shunday vaziyatga olib keladigan sharoit mavjud deb o'ylasa, moliyaviy hisobotga tushuntirishlarda bunday faktning mazmunini ochib berishi va moliyaviy hisobotni tuzishga asos bo'lgan jihatlarni davomiylik tamoyilidan chekinish sabablarini ko'rsatishi zarur.

Bu tamoyilga asosan buxgalteriya hisobini yuritish muddati korxona faoliyat ko'rsatgan muddatga mos bo'lishi lozim, ya'ni korxonaning buxgalteriya hisobi sub'ekt tugatilishi yoki u bankrot deb e'lon kilingan paytgacha yuritilishi lozim. Korxona o'z faoliyatini to'xtatgan kundan boshlab buxgalteriya hisobini yuritish ham to'xtatiladi.

- Xo'jalik operatsiyalari, aktivlar va passivlarni pul bilan baholash. Barcha xo'jalik operatsiyalari, voqealar, aktivlar va passivlar bir xil birlikda – pul bilan baholanishi lozim. O'zbekiston Respublikasida pul birligi so'm va tiyin bo'lib hisoblanadi.

- Ishonchlilik. Axborot, unda jiddiy va taxminlar bo'lmasa va unga foydalanuvchilar asoslanishsa, tayanishsa ishonchli hisoblanadi. Operatsiyalar yoki voqealarning ishonchliligi odatda dastlabki hisob xujjatlari bilan tasdiklanishi lozim.

- Extiyotkorlik. Moliyaviy hisobotda aktivlar va daromadlar narxining oshirilib yuborilishiga, majburiyatlar va xarajatlar etarlicha baholanmasligiga yul kuymasligi lozim. Bu yashirish zahiralarni barpo etish va ta'minotni oshirib ko'rsatishga, aktivlar yoki foydani, majburiyatlar va xarajatlarni ataylab kamaytirish yoki oshirib ko'rsatishga huquq bermaydi.

- Mazmunning shakldan ustunligi. Agar hisob-kitob xujjatlarida va moliyaviy hisobotda axborot operatsiyalar va voqealarning mazmunini ishonchli darajada aks ettirilsa, bunday axborot uning huquqiy shakli bilangina emas, balki

moxiyati va iqtisodiy realligi bilan muvofiq xolda hisobga olinishi va taqdim etilishi zarur.

- Ko'rsatkichlarning kiyosiyli. Moliyaviy axborot foydali va mazmunli bo'lishi uchun u turli hisobot davrlaridagi axborotlarga kiyoslanadigan bo'lishi kerak. Masalan, xozirgi ma'lumotlar 1996 yil takkoslama baholari asosida takkoslanmokda. Hisobotdan foydalanuvchilar korxona moliyaviy hisobotni tayyorlash chogida foydalangan hisob siyosatidan, bu siyosatdagi barcha o'zgarishlardan va bunday o'zgarishlarning natijalaridan xabardor bo'lishi kerak.

Kiyosiylik tamoyiliga rioya qilish uchun quyidagi shartlarni bajarish kerak:

- Butun axborot miqdoriga nisbatan talablar;

- Hisobot yilida nisbatan taqdim etishga yondashuv o'zgargan takdirda undan oldingi davr axboroti kiyoslash maqsadlari uchun uchun qaytadan tasnif etilishi lozim va ayni paytda bunday tasnifning xarakteri, miqdori, sababi ochib berilishi lozim;

- Agar amaliy muloxazalar bilan qayta tasnif etish mumkin bo'lmasa, basharti qayta tasnif amalga oshirilganda sodir bo'ladigan o'zgarishlarning sabablari va xarakteri ochib berilishi zarur;

- Moliyaviy hisobotning xolisligi (betaraflik). Moliyaviy hisobotning ishonchliligini ta'minlash uchun unda keltiriladigan axborot yanglishlardan (taxminlardan) xoli bo'lishi kerak;

- Hisobot davrida daromadlar bilan xarajatlarning muvofiqligi. Bu ushbu hisobot davridagi daromadlarni olishga asos bo'lgan xarajatlarga aks ettirilishini bildiradi. Agar daromadlar bilan xarajatlarning o'rtasida bevosita bog'liqlikni urnatish kiyin bo'lsa, xarajatlar biror-bir taqsimlash tizimiga muvofiq bir necha hisobot davrlari o'rtasida taqsimlanadi. Masalan, bir necha yilga tegishli amortizatsiya, kelgusi davr xarajatlari va boshqalar;

- Aktivlar va majburiyatlarning haqiqiy bahosi. Ularning tannarxi yoki sotib olish qiymati asosiy bahodir. Andozalarda kuzda tutilgan ayrim xollarda haqiqiy baho sotib olish qiymatidan fark qilishi mumkin;

- Tushunarlilik. Moliyaviy hisobotda keltiriladigan axborot foydalanuvchilar uchun tushunarli va sodda bo'lishi lozim. Buncha keyingi yillarda hisobotlar va ular jadvallari sonini kamayishi, yiliga 1-2 marta topshirishga keltirishi xam ijobiy ta'sir ko'rsatadi;

- Axamiyatlilik. Moliyaviy axborot foydalanuvchilar qarorlar qabul qilish jarayonida ularning extiyojlarini kondirish va ularga operatsion, moliyaviy va xo'jalik faoliyatiga baho berishda kumaklashish uchun axamiyatli bo'lishi kerak. Axborotning moxiyati va qiymati (muhimligi) uning axamiyatligiga ta'sir qilishi mumkin;

- Jiddiylik (muhimlik). Agar axborotning tushirib koldirilishi yoki noto'g'ri ko'rsatilishi axborotdan foydalanuvchilarning moliyaviy hisobot asosida qabul qiladigan iqtisodiy qarorlariga ta'sir kilsa, bunday axborot jiddiy (muhim) hisoblanadi.

Moliyaviy hisobotda ayrim ko'rsatkichlarni ajratib ko'rsatish yoki ularni boshqa ko'rsatkichlar bilan bir moddaga birlashtirish xam muhim. SHu sababli agar aktivlar yoki passivlarning, daromadlar yoki xarajatlarning ayrim moddalari muhim bo'lmasa, bunday xollarda modda yoki moddalar xajmining xarakteri va xajmi bir vaqtning uzida baholanadi. Vaziyatga karab moddaning xarakteri yoki xajmi belgilovchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Agar dastlabki axborot muhim bo'lmasa BXMSda keltirilgan bunday axborotlarni ochib ko'rsatish talablarini bajarishga hojat bo'lmaydi. Biroq umumiy foydalanishga mo'ljallangan moliyaviy hisobotlarda muhim axborot boshqa muhim axborot bilan bir moddada birlashtirilgan bo'lsa, moliyaviy hisobotga tushuntirishlarda bu axborotni ochib ko'rsatish zarur.

Jiddiylik (muhimlik) moliyaviy hisobotda keltirilgan tushunarlilik va anqlik darajasi bilan bog'liq. Axborotni ming yoki milliongacha yaxlitlashtirish chogida muhimlik tamoyili buzulmagan paytgacha anqlik darajasidan foydalanishga yul quyiladi.

- Tugallanganlik (tugallik). Moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta'minlash maqsadida axborot etarlicha tula xajmda taqdim etilishi kerak.

- Izchillik. Hisob siyosati bir davrdan ikkinchi davrga izchil utkazilib boradi. Moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar korxonaning turli hisobot davrlaridagi moliyaviy hisobotlarini uning moliyaviy axvalidagi o'zgarishlar tamoyillarini aniqlash uchun kiyoslash imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak.

Sub'ekt operatsiya o'tkazish faoliyatining xarakteridagi ayrim o'zgarishlar yoki vaqti-vaqti bilan katta miqdordagi xarid qilish yoxud kup miqdordagi mulkning chikib ketishi yoki moliyaviy hisobotning sharxi moliyaviy hisobotlarni uzgacha tasavvur etish maqsadga muvofiqligiga olib keladi. Bunday xollarda korxona muhimlik yoki kiyosiylik tamoyillariga rioya qilish o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlashi lozim. Korxona qayta ko'rib chiqilgan ichki tuzilishi uzoq davr davomida saqlansa yoki mukobil tasavvurning afzalligi ravshan bo'lsa, fakat shunday hollardagina moliyaviy hisobot to'g'risidagi tasavvurni o'zgartirishi mumkin.

- O'z vaqtida taqdim etish (zamonaviy). Axborot o'z vaqtida berilgan takdirdagina u foydali bo'ladi. Agar moliyaviy hisobotlar undan foydalanuvchilar tasavvuriga tuzilgan vaqtdan keyin okilona vaqt ichida taqdim etilmasa, uning foydasi kolmaydi. Hisobot axborotlari asossiz ravishda, ushlab kolinsa, u uz axamiyatini yukotishi mumkin. Korxona ushbu mavzuning 7-paragrafida ko'rsatilgan muddatlarda moliyaviy hisobotni tuzishga kodir bo'lishi kerak. Xech kanday omillar, xatto korxonaning operatsiyalari murakkabligi xam hisobotni vaqtida taqdim etmaslikka sabab bo'lmasligi kerak. Axamiyatlilik va ishonchlilik o'rtasida muvozanatga erishish maqsadida iqtisodiy qarorlarni qabul qilish chogida hisobotdan foydalanuvchilarning extiyojlarini kanday qilib yaxshirok kondirishni xal etish kerak.

- Offsetting (modellarning uzaro hisobga olinishi). Aktiv va passiv o'rtasida uzaro hisobga olinishi bo'lmasligi kerak.

"Daromadlar va xarajatlar moddalari uzaro hisobga olinishi mumkin emas, fakat quyidagi hollardan tashkari:

1. BXMS buni talab qiladi va ruxsat etadi;

2. Foyda, zararlar, shuningdek bunday operatsiyalar bilan bog'liq xarajatlar va voqealar yakka holda xam, jamlangan holda xam muhim emas. Ularning taqdim etilishi operatsiyaning yoki bir xildagi bitimlar guruxining moxiyatini eng yaxshi tarzda aks ettirsa bunday miqdorlar umumlashtirilishi va netto – asosda taqdim etilishi kerak" [5].

Agar daromadlar va xarajatlar uzaro hisobga olingan bo'lsa, shunga karamay korxona muhimlik tamoyiliga asoslab, moliyaviy hisoblarga izoxlarda bu miqdorlarni ochib ko'rsatish extiyojini karab chiqishi kerak. Masalan, agar buxgalteriya balansida debitorlik qarzlarini 62-schyot nomi bilan moddada barpo etilgan zahiralar shubxali qarlardan chiqarib tashlab aks ettirish kuzda tutilgan bo'lsa, lekin tushuntirish yozuvida debitorlik qarzi miqdori xam, shubxali qarzlar bo'yicha barpo etilgan zahiralar miqdori xam aloxida ko'rsatiladi.

- Holislik. Moliyaviy hisobot sub'ektning moliyaviy axvolini, uning faoliyati moliyaviy natijalarini va pul mablag'larining xarakatini holisona ko'rsatishi lozim.

Holislik tamoyiliga erishish uchun xar bir korxona buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobot tuzish chogida BXMS va buxgalteriya hisobi asosiy tamoyillarini qo'llashga majburdir.

Faoliyatning xilma-xil turlari bo'yicha yangiliklarni joriy etishning tezligi shunday operatsiyalar va vaziyatlarga olib kelishi mumkinki, bunday operatsiyalar va vaziyatlar bo'yicha BXMS hali ishlab chiqilmagan. Bunday holatlarda moliyaviy hisobotning holisligiga hisob siyosatini tanlash va qo'llanish yuli bilan erishiladi. Bunday siyosat korxona tomonidan «Hisob siyosati va moliyaviy hisobot» andozaga muvofiq ravishda mustaqil ishlab chiqilishi lozim.

II-BOB. “JUMA” PAXTA TOZALASH KORXONASINING MOLIVAVIY HISOBOT KO’RSATKICHLARINI TAKOMILLASHTIRISH AMALIYOTI

2.1. Moliyaviy hisobot paxta tozalash korxonasini samarali boshqarishning vositasi sifatida

Bozor iqtisodiyotida moliyaviy resurslarni boshqarish tizimidagi muhim vazifalardan biri - korxonaning moliyaviy ahvolini tavsiflovchi umumlashtiruvchi ko’rsatkichlar to’g’risidagi ma’lumotlarni muayyan tartibda shakllantirish vazifasini hal etishdir. Mazkur vazifani ishbilarmonlik axborotini taqdim etish tizimi orqali hal etish mumkin, unda moliyaviy hisobot asosiy element hisoblanadi. Moliyaviy hisobot turli xo’jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatini tavsiflash uchun miqdoriy va sifat axborotini shakllantiradi.

Amaliyotda moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar ichki va tashqiqa bo’linadi. Ichki foydalanuvchi uchun mo’ljallangan oylik ish hao’i, sotishlar, xarajatlar, debitorlik va kreditorlik qarzi bo’yicha axborotlar korxonaning ichki foydalanishi uchun tayyorlanadigan moliyaviy hisobotni tuzishga asos bo’ladi (2.1.1-jadval).

2.1.1-jadval

Buxgalteriya hisobi ma’lumotlaridan foydalanuvchilar

Foydalanuvchilar guruhlari	Foydalanuvchilar tarkibi	Axborotdan foydalanish maqsadlari
Ichki:	Boshqaruv xodimlari; bo’linmalar rahbarlari va mutaxassislari; muas-sislar, o’atnashchilar, mulkdorlar, direktorlar kengashi; menejerlar	Foydalilik, sof aktivlar miqdori, likvidlikni aniqlash maqsadida, foyda summasi va normasi, pul mablag’larining etariligi, alohida mahsulotlarning tannarxi va rentabelligini aniqlash uchun
Tashqi: -bevosita moliyaviy manfaatdor bo’lganlar	Bo’lajak investorlar, banklar, mol etkazib beruvchilar, turli kreditorlar	Korxonaning moliyaviy istiqboli, uning likvidligi va to’lovga layoqatliligi to’g’risidagi ma’lumotlarni aniqlash uchun
- bilvosita moliyaviy	Davlat va munisipal mulkni boshqarish bo’yicha vakolatli	Respublika va mahalliy soliqlar to’g’ri to’langanligini tekshirish,

manfaatdor bo'lganlar	organlar, soliq va moliya organlari, davlat statistika idoralari, auditorlik firmalari, fond birjalari, kasaba uyushmalari xodimlari, ilmiy maslahatchilar, xaridorlar va boshqalar.	korxonaning moliyaviy ahvolini baholash uchun
-----------------------	--	---

Tashqi foydalanuvchilarga taqdim etiladigan buxgalteriya moliyaviy hisobotga «Buxgalteriya balans», «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot», «Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot», «Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot», shuningdek tushuntirish xati kiradi. Korxonaning rahbariyatidan tashqari, kelgusi manfaatlarni ko'zlaydigan investorlar, jismoniy shaxslar, mol etkazib beruvchilar va xaridorlar, soliq organlari moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar hisoblanadi.

Buxgalteriya (moliyaviy) hisoboti bazaviy konseptual asoslari tavsiflari asosida amaldagi qonunchilik bilan belgilangan hisobot ko'rsatkichlarini shakllantirishga doir talablarni tanqidiy tahlil qilib o'tamiz. Ularni tadqiq qilish orqali buxgalteriya hisobotining iqtisodiy mohiyati aniqlanadi.

Axborotning buxgalteriya (moliyaviy) hisobotida aks ettirish darajasi boshqarishning tashkiliy-huquqiy shakli, faoliyat sohasi va turi, rivojlanganlik darajasi, kapital jalb etish manbalaridan foydalanish imkoniyatlari, biznes ko'lam, ishbilarmonlik axborotidan foydalanuvchining axborot maqomini qonunchilik tomonidan himoya qilinish darajasi (soliq organlari, statistika organlari, aksiyadorlar, investorlar va h.k.), buxgalteriya hisobotidan foydalanuvchilar guruhining ustuvorligiga bog'liq.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda paxta tozalash korxonalari faoliyatiga qiziquvchilarning ishbilarmonlik axborotiga nisbatan iqtisodiy manfaatlari turlicha ekanligi, pulda baholash usuli bo'yicha nuqtai-nazarlar tengligiga erishishning iloji yo'qligi, hisobot ko'rsatkichlarini ochib berishga yondashuvning ko'rsatkichlar

tarkibini detallashtirish darajasidan kelib chiqqan holda moliyaviy hisobot ma'lumotlarini mukammalligi talabiga erishishi mumkin emas deb hisoblaymiz.

Xalqaro standartlarga muvofiq tuzilgan moliyaviy hisobot ma'lumotlarini to'liq ochib berish ishbilarmonlik axborotining sifat tavsiflaridan biri hisoblanadi. Jumladan, ularga ko'ra, moliyaviy hisobotdan tashqi va ichki foydalanuvchilarning (moliyaviy, investision va operasion faoliyatini, kredit siyosatini, menejment sifatini baholashda) samarasiz boshqaruv qarorlari qabul qilishiga olib keluvchi moddalarni tahlil qilish muhim hisoblanadi.

Paxta tozalash korxonalarni faoliyatini tahlil qilish amaliyoti shuni ko'rsatadi, mijozning hisobotida aksariyat hollarda uchraydigan asosiy xatolar xo'jalik muomalalarini buxgalteriya schetlarida noto'g'ri aks ettirish natijasida ularni to'liq hisobga olmaslik, hisob registrlarida o'z vaqtida qayd etmaslik, aktivlar va passivlarni baholash hamda qayta baholashdagi xatolar, schetlarni qoldiqlarini hisobot shakllariga noto'g'ri o'tkazish oqibatida yuzaga keladi.

Buxgalteriya hisoboti - tashqi foydalanuvchilar (mulkdorlar, kreditorlar, mavjud va bo'lajak investorlar, soliq organlari va h.k.) va ichki foydalanuvchilar (korxona ma'muriyati) uchun korxonaning moliyaviy ahvoli to'g'risida ma'lumot beruvchi asosiy axborot manbaidir. Shu sababli, buxgalteriya hisobotidagi xatolar va noaniqliklarni aniqlashning ahamiyati oshib boradi, chunki ularni e'tiborsiz qoldirish korxona moliyaviy ahvolini tahlil qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni noto'g'ri izohlashga olib kelishi mumkin.

Agar paxta tozalash korxonasi hisob siyosatiga muvofiq foydalangan buxgalteriya hisobi usuli ma'lum bo'lsa, unda moliyaviy hisobot ma'lumotlarini «o'qish» va uning moliyaviy ahvolidan xabardor bo'lish mumkin. Biroq bu holda (tahlil etilayotgan moliyaviy hisobot haqqoniy bo'lgan taqdirdagina) ushbu ko'rsatkichlarning haqiqiy ahvolga muvofiqligi nisbiy bo'ladi. Ushbu nisbiylikni baholay bilish moliyaviy hisobotdan foydalanuvchi moliyaviy menejer va moliyaviy tahlilchilar uchun juda muhimdir. Shu sababli, mazkur holatda buxgalterning malakasiga quyidagi talablar qo'yilmaydi:

1) buxgalter korxonaning moliyaviy barqarorligini baholovchi ko'rsatkichlarni shakllantirish uchun mas'ul hisoblanishi;


2) korxonaning moliyaviy ahvoli to'g'risidagi haqqoniy axborot to'g'risida tasavvurga ega bo'lish imkonini beruvchi zamonaviy moliyaviy tahlil usullaridan xabardor bo'lishi lozim.

Zamonaviy moliyaviy hisobot tahlili buxgalteriya hisobi jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Buxgalteriya hisobotining bosh vazifasi - korxonaning mulkiy va moliyaviy ahvoli, shuningdek faoliyatining moliyaviy natijalari to'g'risida haqqoniy tasavvur hosil qilishi lozim. Korxonaning moliyaviy ahvolini joriy va uzoq muddatli to'lovga layoqatlilik yoki kapital tarkibi, ishbilarmonlik faolligi va faoliyatning daromadliligini ko'rsatadi. Korxonaning moliyaviy ahvolini ifodalovchi ushbu mezonlar buxgalteriya hisobotining bosh elementi bo'lgan buxgalteriya balansida o'zaro bog'liq holda aks ettiriladi.

Paxta tozalash korxonalarning mulkiy ahvoli to'g'risidagi ma'lumotlarni aks ettirish uchun buxgalteriya balansi va unga ilovalardan foydalaniladi, joriy to'lovga layoqatlilikni baholash uchun tushuntirish xati, shuningdek pul oqimlari to'g'risidagi va boshqa hisobot shakllaridan foydalaniladi. Korxona kapitali tarkibining tahlili buxgalteriya balansi va kapitalning harakati to'g'risidagi hisobot ma'lumotlaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Ishbilarmonlik faolligini baholash uchun ham buxgalteriya balansi hamda moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Korxona moliyaviy ahvolining qaysi sohasini baholash ko'zda tutilganidan qat'iy nazar, tahlil axborot bazasining zaruriy elementi - hisobotga tushuntirishlar hisoblanadi. Tushuntirishlar moliyaviy hisobotning asosiy shakllari (buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot) ma'lumotlarini ochib beradi.

Paxta tozalash korxonalarida moliyaviy hisobot tarkibidagi shakllar o'rtasidagi asosiy bog'liqliklar quyidagi 2.1.1-chizmada keltirilgan.



2.1.1-chizma. Moliyaviy hisobot tarkibidagi shakllar o'rtasidagi asosiy bog'liqliklar

O'zbekistonda yillik buxgalteriya (moliyaviy) hisoboti buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot, asosiy vositalar harakati to'g'risidagi, pul oqimlari to'g'risidagi, xususi kapital to'g'risidagi hisobot, buxgalteriya balansiga ilova va tushuntirish xatidan iborat. Yillik buxgalteriya hisobotining qayd etilgan elementlari mustaqil ma'noga va axborot ko'lamiga ega bo'lib, ular birgalikda tashqi foydalanuvchilarga tahlil uchun zarur bo'lgan ishonchli va haqqoniy moliyaviy axborotni taqdim etishi lozim. Ilmiy ishda buxgalteriya hisobotini tahlil qilishning asosiy bosqichlari 5-chizmada berilgan. Unda pul mablag'larini tahlil qilish, kapital tarkibini baholash, noaniq majburiyatlarni, daromadni tahlil qilish,

jumladan tahlil ob'ektlarining ichki bo'linishini ko'rsatgan holda rentabellik hamda moliyaviy natijalarni tahlil qilish tavsiya etiladi.

Hozirgi paytda moliyaviy hisobotni tahlil qilish to'g'risidagi sodda tasavvur yuzaga kelgan. Unga muvofiq, tahlil uchun moliyaviy koeffisientlarni hisoblash kifoya. Biroq buxgalteriya hisobotidan likvidlilik, aylanuvchanlik, rentabellik koeffisientlarini hisoblash uchun foydalanish tahlilning yakuniy maqsadi hisoblanmaydi.

Moliyaviy koeffisientlar qiymatini hisoblash va izohlash shubhasiz, muhim, biroq bunday hisob-kitoblarning asosiy maqsadi ular asosida kelajakdagi moliyaviy ahvol prognozlarini tuzishdan iborat.

Yillik buxgalteriya hisoboti shakllari asosida o'tkaziladigan moliyaviy natijalarni prognozli tahlil qilishning asosiy bosqichlarini ishlab chiqildi (2.1.2-jadval).

2.1.2-jadval.

Paxta tozalash korxonalarida buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida tuzilgan moliyaviy hisobotni tahlil qilish bosqichlari

Ko'rsatkichlar	Moliyaviy hisobotni tahlil qilish bosqichlari				
	Pul mablag'larini tahlili	Kapital tarkibini baholash	Dargumon majburiyatlarni tahlil qilish	Rentabellikni tahlil qilish	Moliyaviy natijalarni tahlil qilish
Tahlil maqsadi	pul mablag'larini joriy to'lovga layoqatlilikni ta'minlash uchun zarur bo'lgan miodorda va muddatlarda topa bilish layo'atini baholash	- moliyaviy tavakkalchilikni tavsiflash uchun - kelgusi foydani va pul oqimlarini moliyaviy resurslarni bergan sub'ektlar o'rtasida tao'simlash uchun	joriy va uzoq muddatli to'lovga layoqatlilikni aniqlash uchun	korxona mulkiga kiritilgan kapitalning samaradorligini, resurslarni boshqarish natijalari, investisiyalarning maqsadga muvofiqligini aniqlash	

Tahlil uchun ma'lumot manbalari	buxgalteriya balansi, kapital o'zgarishi to'g'risidagi hisobot, tushuntiruvchi yozuvlar	buxgalteriya balansi, kapital o'zgarishi to'g'risidagi hisobot	boshqa xo'jalik sub'ektlari, soliq organlari bilan yuzaga kelgan tartibga solinmagan kelishmovchiliklar, mahsulot sifati bo'yicha kafolatlar, uchinchi tomonning majburiyatlari bo'yicha kafolatlar	moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot	moliyaviy natijalarga to'g'risidagi hisobot
Moliyaviy koeffitsientlarni hisoblash	likvidlik koeffitsientlari, kapitalning aylanuvchanlik koeffitsientlari, to'lovga layoqatlilik koeffitsientlari	qarzdorlik foiz stavkalari, qoplash shartlari, majburiyatlar ta'minoti sifatida berilgan aktivlar, ko'rsatilgan garov majburiyatlarining mavjudligi. Ular asosida kapital bahosi hisoblanadi.		mulk rentabelligi, ishlab chiqarish rentabelligi, korxonaning rentabelligi, mahsulot rentabelligi, fondlardan foydalanish rentabelligi koeffitsientlari	foyda ko'rsatkichlari (mutlao' va nisbiy)
Ma'lumotlarni taqdim etish ko'rinishi	matnli, jadvalli, matnli-jadvalli				
Muammolar	debitorlik va kreditorlik qarzlari moddalarini aniqlash	kelgusidagi foyda va pul oqimlarining tahlili bajarilmagan	bo'lajak majburiyatlarning aniq summalarini aniqlash	foydani hisob siyosati, hisob metodologiyasiga bog'liq ravishda aks ettirishning ob'ektivligi («kassa» yoki «hisoblash» usullari bo'yicha hisob yuritish), tannarxni shakllantirishga soliq nuqtai-nazaridan yondashuvdan voz kechish	

Mazkur tahlil metodikasi quyidagilarni o'z ichiga oladi: korxona daromad va xarajatlarini barqaror hamda tasodifiy daromad omillarini ochib bergan holda tahlil qilish, pul tushumlari va to'lovlar turlari bo'yicha pul oqimlari tarkibini kelgusidagi natijalarni taxminlagan holda tahlil qilish, debitorlik qarzini vujudga kelish va qoplash muddatlari bo'yicha tahlil qilish, jumladan, qarzdorlik bilan bog'liq tavakkalchilik darajasini belgilash, qarzdorlik ahvolini nazorat qilish, uni qaytarish choralari va debitorlar bilan ishlash umumiy siyosatini ishlab chiqish.

Kapitalni jalb etishdan manfaatdor korxonalar ko'rsatilgan axborotdan tashqari ularning investorlar oldidagi investision jozibadorligini oshiruvchi qo'shimcha ma'lumotlarni ochishlari mumkin. Shuni ta'kidlash zarurki, Shu paytgacha bayon qilish zarurati haqqoniylik va ahamiyatlilik talablari bilan belgilangan bo'lsa, ushbu holatda ko'ngilli ravishda qo'shimcha mijozlar to'g'risidagi ma'lumotlar, rivojlanishning mo'ljallangan yo'nalishlari va istiqbollari, rejalashtirilayotgan investisiyalar, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi faoliyat, filiallar mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlar (filiallarning mamlakat ichkarisida va chet ellarda joylashuvi, filialning bosh korxonanikidan farq qiluvchi faoliyati, o'tgan davrga nisbatan sodir bo'lgan o'zgarishlar) va boshqalar. Shuni qayd etish zarurki, qimmatli qog'ozlar emitenti hisoblangan korxona uchun ochib beriladigan axborot ko'lamini yanada kengayadi.

Birlamchi moliya bozorini tashkil qilishdan asosiy maqsad, ishlab chiqarish va u bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlarni investisiyalash uchun zarur bo'lgan qo'shimcha moliya resurslarini tashqaridan jalb qilishdir. Agar investor biror-bir emitentning iqtisodiy barqarorligini xolisona baholay olsa, u ana shu emitentning qimmatli qog'ozlarini tezda xarid qilib oladi. Qimmatli qog'oz emitentdan investor ixtiyoriga qonuniy o'tgan vaqti birlamchi moliya bozori shakllandi deyishga asos bo'ladi. Bu, o'z o'rnida, emitent uchun qo'shimcha moliya resurslarini nafaqat ishlab chiqarishni rivojlantirishga, balki rang-barang maqsadlar, jumladan, ilmiy izlanish va ixtirolar, yangi ishlab chiqarishlarni rivojlantirish va mavjudlarini qayta ta'mirlash imkonini beradi.

Qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtirish markazi tasdiqlagan qimmatli qog'ozlar emitentining choraklik hisoboti to'g'risidagi nizomga muvofiq emitent faoliyatining umumiy yo'nalishlari va tarmoqning rivojlanish istiqbollari prognozi to'g'risidagi; sotish bozorlari va asosiy xaridorlar (sotishdan kelgan tushmning 10 foizdan ortig'i to'g'ri keladigan iste'molchilar to'g'risidagi ma'lumotlar beriladi); xom ashyo, materiallar, xizmatlar manbalari, importga bog'liqlik (xarid qilingan tovar-moddiy boyliklarining 10 foizdan ortig'i to'g'ri keladigan etkazib beruvchilar to'g'risidagi ma'lumotlar beriladi) mavsumli faoliyat; raqobat va asosiy raqobatchilar tavsiflangan ma'lumotlarni ochib berish tavsiya etiladi. Shuningdek, emitent moliyaviy-xo'jalik faoliyatida sodir bo'lib, aktivlar hajmining 10 foizdan ortiq kamayishi yoki ko'payishiga olib kelgan faktlar; hisobot choragida foyda (zarar) miqdorining o'tgan chorakka nisbatan 20 foizdan ortiq ko'payishi yoki kamayishiga olib kelgan faktlar; emitentning zahira va boshqa maxsus fondlarini shakllantirish va foydalanish to'g'risidagi ma'lumotlar; korona aktivlarining 10 foizdan ortig'ini tashkil qilgan bitimlar; emitent tomonidan qimmatli qog'ozlarni joylashtirish natijasiga jalb etilgan mablag'larning yo'naltirilishi to'g'risidagi ma'lumotlar; debitorlik va kreditorlik qarzi to'g'risidagi batafsil ma'lumotlar; moliyaviy quyilmalar va emitentning qimmatli qog'ozlarini sotib olish yoki begonalashtirish to'g'risida qaror qabul qilishda foydali bo'lgan boshqa ma'lumotlarni ochib berish tavsiya etiladi.

Xulosa qilganimizda, yuqoridagi korxonaning tahlil uchun axborot bazasini kengaytirgan holda, tashqi foydalanuvchiga uning ichki va tashqi muhit ta'sirlari hisobga olingan investisiya jozibadorligini baholash imkonini beradi.

2.2. Paxta tozalash korxonalarining moliyaviy tahlil jarayoni uchun moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini shakllantirish

Respublikamizda qabul qilingan “Buxgalteriya hisobi va hisobotini isloh qilish” Dasturi foydalanuvchilarga nafaqat moliyaviy hisobot ma'lumotlaridan foydalangan holda nazorat funksiyalarini amalga oshirish imkonini yaratish, balki mulkdor hamda korxonaning hamkorlari (kreditorlari)ni axborot bilan ta'minlashga qaratilgan.

Shu bilan birga standart shakl bo'yicha tuzilgan moliyaviy hisobot korxonani boshqarish va samarali tadbirkorlik hamkorligini rivojlantirish talablariga etarlicha javob bermaydi. Undagi balans umumlashmalarini shunday tuzish zarurki, tegishli tahliliy jarayon amalga oshirilganidan so'ng boshqaruv qarorlari qabul qiluvchi shaxslar uchun yo'naltiruvchi ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni olish imkoniyati yuzaga kelishi lozim.

Shuningdek, kreditorlar korxona faoliyatidan kutayotgan iqtisodiy manfaatdorlik tuzilgan bitimlar shartlaridan kelib chiquvchi talab etilgan daromadni ta'minlash bilan belgilanadi. Bunda korxona o'z zimmasiga olgan iqtisodiy majburiyatlar hajmi, tarkibi hamda darajasini baholash imkonini beradigan buxgalteriya hisoboti ma'lumotlari muhim hisoblanadi.

Bunday ma'lumotlarni moliyaviy hisobotdan olish katta amaliy ahamiyatga ega. O'z mablag'lari va qarz mablag'larining bahosini bilish korxona mulkdorlarining iqtisodiy manfaatlari darajasi korxona rahbariyati tomonidan ta'sischilarga kafolatlangan daromaddan yuqori yoki pastligini solishtirish hamda baholash imkonini beradi. Buni korxonaning mulkdor va kreditorlar oldidagi majburiyatlari darajasini tavsiflovchi foiz stavkalarini taqqoslash yordamida bilish mumkin. O'z mablag'lari va qarz mablag'lari bahosini taqqoslash korxona rahbariyatining moliyaviy menejmenti samaradorligini, shuningdek korxona doirasidagi iqtisodiy aylanma ko'proq kimning - mulkdor yoki kreditor (uchinchi shaxs)ning foydasiga amalga oshirilayotganini ko'rsatadi.

Moliyaviy hisobotdan foydalanuvchi o'z kapitali bahosi, qisqa va uzoq muddatli qarz kapitali bahosi to'g'risida haqqoniy ma'lumotlarni olgan taqdirdagina turli ishbilarmonlik muomalalari bo'yicha samarali qarorlar qabul qilish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan moliyaviy ko'rsatkichlarni hisoblab chiqishi mumkin.

Bu holatda korxona xodimlari kreditorlar sifatida tan olinadi, ularga ko'rsatilgan xizmatlar mehnatga haq to'lash shaklida, shuningdek korxonada mavjud rag'batlantirish tizimlariga muvofiq, foydadan to'lanishi lozim bo'lgan mablag'lar muayyan muddatga barqaror passivlar sifatida xo'jalik muomalalari sifatida aks ettiriladi.

Qoidaga ko'ra, qisqa muddatli passivlar - majburiyatlar bo'yicha kreditor foydasiga to'lanadigan summalarni hisoblash va to'lash nazarda tutiladi. Bunda korxonani moliyalashda muhim rol o'ynagan ayrim kreditorlar guruhlarining manfaatlari qondirilmay qolishi ahamiyatga ega emas. Masalan, qonunchilikda mehnatga haq to'lash va deponentlar, hisob-kitoblar va muassislar, dividendlar, byudjet va byudjetdan tashqari fondlar oldidagi normal kreditorlik qarzi bo'yicha foizlar hisoblash hamda to'lash ko'zda tutilmagan. Shu sababli bu turdagi «qarzar» nolga tenglashtiriladi.

Amaliyotda, ko'p qirrali xo'jalik vazifalarini hal etishda - oldi-sotdi bitimlari, ijara muomalalari, investisiyalarni amalga oshirishda, kredit siyosatini ishlab chiqishda va korxona oborotiga qarz mablag'larini jalb etish natijasida yuzaga keladigan majburiyatlar darajasi tavsiflari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, korxona kreditorlari uchun ushbu iqtisodiy majburiyatlarning hajmi va tuzilmasi, qarzlarga xizmat ko'rsatish summalari to'g'risidagi ma'lumot ustuvor o'rin tutadi. Bunda moliyalash manbalarini qisqa va uzoq muddatlilarga ajratish asosiy ahamiyatga ega. Chunki, ularni aralashtirib yuborish korxonaning o'z kreditorlariga nisbatan iqtisodiy majburiyatlarini aks ettiruvchi moliyaviy stavkalari noto'g'ri belgilanishiga olib keladi. Moliyaviy hisobotda korxonaning uzoq muddatli va qisqa muddatli moliyalash manbalarini ajratib ko'rsatish muhim

ahamiyatga ega. Buning uchun to'lanadigan foizlar summasini qisqa muddatli va uzoq muddatli moliyalash manbalari bo'yicha ajratish lozim.

Qisqa muddatli qarzlarga oid majburiyatlar darajasini baholash xilma-xilligi bilan ajralib turadi va asosiy qarz miqdori hamda unga xizmat ko'rsatish summaları to'g'risidagi ma'lumotlarni ochib berishga alohida yondashuvni talab qiladi. Masalan, byudjet oldidagi muddati o'tgan qarzдорlik bo'yicha majburiyatlar bahosi Markaziy bankning yillik qayta moliyalash stavkasi bilan oldindan belgilanadi. Biroq, ushbu stavkani qo'llash uchun o'z vaqtida qoplanmagan qarzдорlikni muddatlar bo'yicha ajratish zarur. Bu holatda ijro etilmagan to'lovlar - muddati o'tgan byudjet oldidagi majburiyatlarni bajarilmagan muddatlari bo'yicha guruhlash (Markaziy bankning amaldagi yillik qayta moliyalash stavkasini ko'rsatgan holda) foydalanuvchi uchun muhim hisoblanadi. Barcha qisqa muddatli moliyalash manbalari qarzning samaradorligi nuqtai-nazaridan amaldagi yillik ichki moliyalash davri muddatidan qat'iy nazar, oddiy yillik foiz stavkasi bilan tavsiflanadi.

Kelgusi hisobot davri uchun kredit shartnomalariga oid majburiyatlar darajasini baholash zarur bo'lsa, uni o'rtacha foiz stavkasi yordamida aniqlash mumkin:

$$\text{Qarz davridagi o'rtacha foiz stavkasi} + \text{Yillik o'rtacha foiz stavkasi} \times \text{Hisobot davrida foizlar hisoblashning o'rtacha davomiyligi}$$

Agarda korxona bank kreditidan foydalanish foizlarini uni olish paytida to'lash yoki kredit muddati yakunida birdaniga to'lash kabi shartlar asosida kredit olgan bo'lsa, ushbu holatlarning har birida moliyaviy hisobotda buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirilmagan, biroq foydalanuvchilar uchun muhim bo'lgan ma'lumotlar ochib berilishi lozim.

Agar moliyaviy hisobot tarkibida nafaqat uzoq muddatli bank krediti bo'yicha asosiy qarz summasi, balki to'lovlar jadvali va qarzni yillar bo'yicha qoplash to'g'risidagi ma'lumotlar berilgan bo'lsa, foydalanuvchi o'zi uchun

muhim bo'lgan uzoq muddatli qarzga doir majburiyatlar darajasini mustaqil ravishda hisoblab chiqishi mumkin.

Buxgalteriya balansi ko'rinishidagi moliyaviy hisobot korxona kapitali tuzilmasi xususiyatlarini uning barcha muhim jihatlari bo'yicha hisoblash imkonini beradi.

Bu erda kapital tuzilmasining tegishli ko'rsatkichlarini bevosita hisobot ma'lumotlari asosida aniqlash mumkin:

Valyuta balansi tarkibidagi xususiy kapital ulushi.

$$H_E = \frac{\text{Xususiy kapital (EE)}}{\text{Valyuta balansi (V)}}$$

Valyuta balansi tarkibidagi uzoq muddatli qarz kapitali ulushi.

$$H_{Lg} = \frac{\text{Uzoq muddatli qarz kapitali (Lg)}}{\text{Valyuta balansi (V)}}$$

Valyuta balansi tarkibidagi qisqa muddatli qarz kapitali ulushi.

$$H_{Lk} = \frac{\text{Uzoq muddatli qarz kapitali (Lg)}}{\text{Valyuta balansi (V)}}$$

Investisiya kapitali tarkibidagi xususiy kapital ulushi.

$$H_E = \frac{\text{Xususiy kapital ulushi}}{\text{Xususiy kapital (E) + Uzoq muddatli qarz kapitali (Lg)}}$$

Investisiya kapitali tarkibidagi uzoq muddatli qarz kapitali ulushi

$$H_{Lg} = \frac{\text{Uzoq muddatli qarz kapitali (Lg)}}{\text{Xususiy kapital (E) + Uzoq muddatli qarz kapitali (Lg)}}$$

Xususiy kapital bahosini hisoblashda ta'sischi'larning iqtisodiy manfaati cheksiz renta bilan ko'rsatiladi, shu sababli, unga davomiyligiga ko'ra muayyan muddat doirasidagi yillik o'rtacha murakkab foiz stavkasi mos keladi. Uzoq muddatli qarz kapitalining bahosi qarz olish muddatlari bilan belgilanadigan cheklanmagan yillar uchun yillik o'rtacha murakkab foiz stavkasi yordamida aniqlanadi. Qisqa muddatli qarz kapitalining bahosi esa, yillik o'rtacha hisob-kitobdan kelib chiqqan holda belgilanadi. Binobarin, mablag'larni qisqa muddatga qarzga olishning aniq muddatlari bir yildan kam bo'lishi ham mumkin (10 kun, bir oy, 2 oy va h.k.).

Foiz stavkalarining ko'rsatilgan miqdorlarini taqqoslanadigan ko'rinishga keltirish uchun qayd etilgan holatlarning har biri uchun samarali yillik foiz

stavkasini hisoblash zarur. Ushbu ko'rsatkich foiz stavkasining o'rtachalashuvi sodir bo'ladigan vaqt omilidagi tafovutlarni bartaraf etadi.

Yuqorida qayd etilganidek, paxta tozalash korxonasi faoliyatidan bevosita manfaatdor bo'lgan shaxslar o'zlariga tegishli qiymatliklarni foyda olish maqsadida korxona tasarrufiga topshiradilar. Tomonlarning har biri kutiladigan mablag'lar ko'payishi to'g'risida o'zining individual fikriga ega bo'ladi. Agar ko'ngilli ravishda qabul qilingan majburiyatlar korxona rahbariyati tomonidan bajarilishidan kelib chiqiladigan bo'lsa, korxona kapitalining bahosini u operasion, moliyaviy va investision faoliyat sohasida xo'jalik muomalalarini amalga oshirishda erishishi lozim bo'lgan eng kam daromad normasi sifatida tushunish lozim. Jalb etilgan mablag'lardan xo'jalik muomalalarida foydalanishgacha qabul qilingan majburiyatlardan kelib chiquvchi minimal ko'payish normasini saqlash talabi korxonaning to'lovga layoqatliligini baholash asosi hisoblanadi.

Tovarlar oldi-sotdi hujjatlarining moliyaviy ekvivalentligini baholashda talab etiladigan daromad sifatida korxona kapitalining baholash qiymatini olish lozim. Investision dasturlarni ko'rib chiqishda diskontlash normasi sifatida investisiya (uzoq muddatga jalb etilgan) kapitali bahosi olinadi. Demak, moliyaviy hisobotda aks ettiriladigan va korxonani moliyalash shartlarini baholashda foydalaniladigan axborotga mulkdorlar va kreditorlar oldidagi majburiyatlar bajarilishini nazorat qilish, eng kam daromad normasini belgilash, ishbilarmonlik muomalalarini amalga oshirish bilan bog'liq moliyaviy qarorlar qabul qilishga ta'sir ko'rsatuvchi foydali ishbilarmonlik axboroti sifatida qarash mumkin. Bunda nafaqat buxgalteriya schetlari va registrlarida tizimli tartibda shakllantirilgan qiymat ifodasidagi axborot, balki buxgalteriyadan tashqari ma'lumotlar ham ochib berilishi lozim. Misol uchun, uzoq muddatli va qisqa muddatli kreditlar bo'yicha o'rtacha qarz muddati, yillik foiz stavkalari darajasi, dividendlar to'lash va hokazo ko'rsatkichlar muhim ahamiyatga ega. Natijada auditor o'z xulosasida nafaqat buxgalteriya hisobotiga oid ma'lumotlarni, balki buxgalteriya hisobotidan tashqari

moliyaviy qarorlar qabul qilishga ta'sir ko'rsatuvchi muhim ma'lumotlarni o'z ichiga oluvchi moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini ham tasdiqlashi lozim.

Yuqorida kapital bahosi va uning ko'payishini, paxta tozalash korxonasi majburiyatlarini ya'ni mulkdorlar, kreditorlar uchun foydali bo'lgan ishbilarmonlik axborotini baholash uchun moliyaviy tahlilda qo'llanadigan ko'rsatkichlar tahlil qilib chiqildi.

Quyida esa kapitalni joylashtirish samaradorligi nafaqat daromad darajasi, balki tadbirkorlik tavakkalchiligini baholash bilan bog'liq holda belgilovchi ma'lumotlarni aks ettirish imkoniyatlarini ko'rib chiqamiz.

Tadbirkorlik tavakkalchiligini baholashda korxona aktivlariga kapital kiritishdan olinadigan daromad ko'rsatkichining vaqt omili bilan bog'liq holda o'zgarishini hisobga olish lozim. Bunda kapital kiritish tavakkalchiligi daromad darajasining beqarorligida ifodalanadi.

Investision faoliyatdan olingan foydani investisiya tusidagi aktivlarning o'rtacha qiymati bilan taqqoslash korxonaning investisiya aktivlari rentabelligini baholash imkonini beradi.

Ishbilarmonlik tavakkalchiligini baholashda moliyaviy hisobot shakllari ko'rsatkichlari orasidagi asosiy bog'liqliklar 2.2.1-chizmada keltirilgan.

Korxonani mahsulot (ish, xizmat)larni sotish bilan bog'liq asosiy operasion faoliyati sotishdan olingan foydada aks etadi. Sotishdan olinadigan foydani operasion faoliyatni ta'minlovchi aktivlar bilan taqqoslash va natijada korxonaning operasion aktivlarini baholash mumkin.

Asosiy faoliyatga bevosita bog'liq bo'lmagan aktivlar bilan amalga oshiriladigan moliyaviy operasiyalarga qiziqishni shu bilan izohlash mumkinki, korxonaning vaqtincha bo'sh mablag'lari, valyutasi, vaqtincha bo'sh mulki oborotdan chiqarilmasligi lozim. Bunda asosiy e'tibor faqatgina korxonaning bunday mulkini saqlashga emas, balki vaqtincha asosiy ishbilarmonlik oborotidan chiqarilgan bunday qiymatliklarning ham istalgan daromad darajasini ta'minlashga qaratiladi. Masalan, agarda pullar o'z-o'zidan daromad hosil qilmaydigan (foyda

keltirmaydigan) aktivlar hisoblansa, ularni bankning depozit omonatiga joylashtirish, bank bilan hisob-kassa xizmati ko'rsatish bo'yicha yanada foydaliroq shartnoma tuzish, moliyaviy vositalarni sotib olish-sotishga doir joriy operatsiyalarni amalga oshirish va xokazolar orqali daromad keltiruvchi aktivlarga aylantirish lozim. Aslida korxona aktivlarining har bir turiga daromad hosil qiluvchi mulk sifatida qaralishi lozim, shuning uchun ushbu qoidaga amalda qanchalik rioya qilinayotganligini nazorat qilish muhimdir.

MOLIYAVIY NATIJALAR TO'G'RI SIDAGI HISOBOT			BUXGALTERIYA BALANSI	
Sotishdan tushgan tushum Sotish tannarxi			Korxonaning asosiy faoliyatini ta'minlovchi	Kapital
Operasion faoliyatdan olingan foyda	→	Operasion faoliyat borasida aktivlar rentabelligi ←	Aktivlari	
Investision faoliyatdan olingan foyda Favqulodda foyda va zararlar	→	Investision faoliyat borasida aktivlar rentabelligi ←	Korxonaning investision faoliyatini ta'minlovchi aktivlari	Majburiyatlar
Moliyaviy faoliyatdan olingan foyda	→	Moliyaviy faoliyat borasida aktivlar rentabelligi ←	Korxonaning moliyaviy faoliyatini ta'minlovchi aktivlari	
Korxona foydasi	→	Korxona aktivlarining rentabelligi (barcha faoliyat turlari bo'yicha) ←	BALANS	BALANS

2.2.1-chizma. Ishbilarmonlik tavakkalchiligini baholashda moliyaviy hisobot shakllari ko'rsatkichlari orasidagi asosiy bog'liqliklar

Pul mablag'lari harakatini tahlil qilish moliyaviy ahvol va moliyaviy natijalarni tahlil qilish o'rtasidagi tahliliy ish hisoblanadi. Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobotdagi umumlashtirish ob'ekti korxonaning bank schyotlari va kassadagi pul mablag'lari hisoblanadi. Ushbu hisobotni tuzishda pul mablag'larining ekvivalentlari ham pul mablag'lariga tenglashtiriladi. Ularga

qiymatning juda oz o'zgarish tavakkalchiligi bilan oldindan ma'lum pul mablag'lari summasi erkin aylantiriladigan qisqa muddatli va yuqori likvidlikka ega. Pul mablag'lari va ularning ekvivalentlarining muomalaga kirib kelishi va chiqib ketishi korxonaning operasion, investision va moliyaviy faoliyatdagi pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobotda ochib beriladigan pul oqimlarini tashkil qiladi.

Operasion faoliyatdagi pul oqimlariga tovarlar, ishlar va xizmatlarni sotishdan tushgan tushum, komission to'lovlar, boshqa operasion daromad, xomashyo va tovar etkazib beruvchilarga to'lovlar; korxona xodimlariga to'lovlar, sug'urta to'lovlari va mukofotlar, iqtisodiy jarimalar tushumlari va to'lovlari, savdo shartnomalari bilan bog'liq pul mablag'lari harakati kiradi.

Operasion faoliyat (operating activities) deganda kompaniyaning asosiy daromadi manbai bo'lgan faoliyat, shuningdek, investision va moliyaviy faoliyatga kirmaydigan boshqa operasiyalar kiradi.

Operasion faoliyatdagi pul oqimlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ◆ tovarlar, ishlar va xizmatlarni sotishdan kelgan tushumlar;
- ◆ komission to'lovlar, franshiza tushumlari, boshqa operasion daromad;
- ◆ xomashyo va mol etkazib beruvchilarga to'lovlar;
- ◆ korxona xodimlariga to'lovlar;
- ◆ sug'urta to'lovlari va mukofotlar, iqtisodiy jarimalar tushumlari va to'lovlari, savdo shartnomalari bilan bog'liq pul mablag'lari harakati kiradi.

Investision faoliyat (investing activities) uzoq muddatli aktivlar - asosiy vositalar (jumladan xo'jalik usulidagi qurilish), pul mablag'lari ekvivalentlariga mansub bo'lmagan va korxonaning savdo faoliyati ob'ekti hisoblanmagan moliyaviy quyilmalar, kelgusidagi pul mablag'lari tushumlarini ta'minlaydigan resurslarni ifodalovchi boshqa aktivlarni sotib olish yoki sotishdan iborat.

Moliyaviy faoliyat (financing activities) xususiy va qarz mablag'lari hajmi va tuzilmasi o'zgarishiga olib keluvchi operasiyalarni ifoda etadi. Ular quyidagilar:

- ◆ aksiya, obligasiya, veksellar, xususiy va qarz mablag'larining boshqa

vositalarini chiqarishdan kelgan tushumlar;

- ◆ qarz mablag'larining qaytarilishi;
- ◆ moliyaviy ijara shartnomalari bo'yicha mulk qiymati to'lovlari va boshkalardan iborat.

Pul oqimlarini faoliyat turiga ko'ra ajratish foydalanuvchilarning hisobot ma'lumotlariga nisbatan turli talablari bilan bog'liq. Operasion faoliyatda korxonaning xo'jalik jarayonini pul mablag'lari bilan ta'minlab turish imkoniyatini baholash va ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi natijasida oborotning oshishi tendensiyalarini aniqlash muhimdir. Investisiyalarga yo'naltirilgan mablag'lar bo'lajak ishlab chiqarish quvvatlarining shakllangan xo'jalik faoliyati darajasini va belgilangan rentabellik hamda likvidlik darajalarini qanchalik saqlay olish imkoniyatlarini ko'rsatadi. Pul oqimlari to'g'risidagi moliyaviy tUSDagi ma'lumotlar korxona mulkdorlari va kreditorlarining korxona shakllantirayotgan pul oqimlariga nisbatan kelgusidagi da'volari nuqtai-nazaridan qiziqish uyg'otadi.

Operasion faoliyatdagi pul oqimlari to'g'risidagi ma'lumotlar quyidagi ikki usulda taqdim etilishi mumkin:

- barcha asosiy tushumlar va to'lovlar guruhlar, tushumning kelib tushishi, xodimlarga to'lovlar, xomashyo va butlovchi qismlar sotib olish va h.k. doir pul oqimlarini bevosita ochib berishni nazarda tutuvchi bevosita usul;

- hisobot davrida olingan soliq to'lashgacha bo'lgan sof foyda miqdorini, unga investision va moliyaviy faoliyatga doir operasiyalar hamda daromad (xarajat)larning ta'sirini bartaraf etgan holda, tuzatishga asoslangan bilvosita usul.

Bilvosita usuldan foydalanishda soliq solingungacha bo'lgan sof foyda eng avvalo aylanma mablag'lardagi o'zgarishlar ta'siri hisobga olingungacha bo'lgan operasion daromad oraliq ko'rsatkichiga keltiriladi. Bunga quyidagi keng tarqalgan tuzatishlar yordamida erishish mumkin:

- dastlab foyda miqdorini kamaytirgan amortizasion ajratmalar, to'lanadigan foizlar, asosiy vositalar va boshqa uzoq muddatli aktivlarni sotishdan ko'rilgan zarar summaları tiklanadi;

- dastlab foyda va zararlar schet kreditiga o'tkazilgan investision daromadlar, Shuningdek baholash zahiralarning kamayish summalari chiqarib tashlanadi.

Agar paxta tozalash korxonasi operasion faoliyatdagi pul oqimlarini ifodalash uchun bilvosita usuldan foydalansa oborotdan tashqari kapital schyotlariga tegishli bo'lgan kurs farqlarini ajratib ko'rsatish zarurati yuzaga keladi. Kurs farqlari foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotga kiritilgani sababli oborotdan tashqari kapital schyotlariga tegishli kurs farqlari summasiga tuzatish (stornolash) yozuvi qayd etilishi lozim.

Xalqaro standart foydalanuvchi uchun ko'proq ma'lumot beruvchi va vaziyatli modellashtirishdan keng foydalanish imkonini beradigan bevosita usuldan foydalanishni rag'batlantiradi. Korxonalar odatga ko'ra, barcha tushumlar va to'lovlar tuzilmasini ko'rsatmaydigan va soliq to'lashgacha bo'lgan sof foydaga yuqoridagi tuzatishlar bilan cheklanadilar.

Xulosa qilib aytish mumkinki, moliyaviy hisobotda korxona aktivlarining asosiy guruhlar va ulardan foydalanishning moliyaviy natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarning ochib berilishi xo'jalik sub'ekti rahbariyati amalga oshirayotgan boshqaruv sifatini chetdan nazorat qilish imkonini beradi, demak korxona mulkdorlari va kreditorlarining iqtisodiy manfaatlariga rioya etilishini nazorat qilishga xizmat qiladi.

III-BOB. PAXTA TOZALASH KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA MOLIVAVIY HISOBOTINI TAKOMILLASHTIRISH

3.1. Paxta tozalash korxonalarida milliy va xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobotni takomillashtirish

Paxta tozalash korxonalari moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etishda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2002 yil 27 dekabrda 140-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan va 2003 yil 24 yanvarda 1209-son bilan Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olingan "Moliyaviy hisobot shakllari va ularni to'ldirish bo'yicha qoidalari tasdiqlash to'g'risida"gi me'yoriy hujjatga rioya qiladilar. Ushbu me'yoriy hujjat O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida" qonuni va Buxgalteriya hisobining milliy standartlari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etishni tartibga soladi. Bundan tashqari, moliyaviy hisobotning har bir shakllari bo'yicha Buxgalteriya hisobining milliy standartlari ishlab chiqilgan bo'lib, bular moliyaviy hisobot shakllarining ko'rsatkichlarini mazmun va mohiyatini belgilab beradi.

Hozirgi kundagi mavjud me'yoriy hujjatlar moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etishni Buxgalteriya hisobining milliy standartlari asosida olib borishni ta'minlashi bilan birga, korxonaning tijorat hamda ishlab chiqarish sirlarini saqlash imkonini bergan holda korxona to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lish va moliyaviy holatini o'rganish imkonini beradi. Lekin shu bilan birga iqtisodiyotni erkinlashtirilishi, bozor munosabatlarini keng joriy etilish, paxta tozalash korxonalari moliyaviy hisobot shakllarini tarmoq xususiyatlarini hisobga olgan holda takomillashtirish zaruriyatini qo'ymoqda.

Paxta tozalash korxonalari moliyaviy hisobotiga izoxlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlarida:

1. Korxonaning moliyaviy hisobotini tuzishda va uning hisob siyosatida tanlab olingan va qo'llanilayotgan asos to'g'risidagi axborot bo'lishi lozim.

2. BXMS talab qiluvchi, hech bir joyda moliyaviy hisobotda ko'rsatilmagan axborotni ochib berishi.

3. Moliyaviy hisobotda keltirilmagan, lekin moliyaviy hisobotni aniq va to'g'ri tasavvur etish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha tahliliy axborotni keltirish lozim.

Korxona moliyaviy hisobotning ushbu bo'limida daromadlar va xarajatlar turlari yoki faoliyat turlari bo'yicha tasnif qilish yo'li bilan daromadlar va xarajatlarni tahlil kilib berishi kerak.

Xarajatlarni faoliyat turlari bo'yicha tasnif qilish, xarajatlarning turlari bo'yicha qo'shimcha axborotni, jumladan eskirish (amortizatsiya) xarajatlarini, xodimlarni saqlash bilan bog'liq xarajatlarni, xom ashyo va materiallardan foydalanish xarajatlari bo'yicha qo'shimcha axborotlarni ochib berishi lozim.

Bulardan tashqari moliyaviy hisobotga qo'shimcha axborotlarda:

- Moliyaviy hisobotni tayyorlash chog'ida foydalanilgan baholash asosini, ya'ni dastlabki qiymat, joriy qiymat, sotish qiymati, diskont qiymati, balans va boshqa qiymatlarni shakllanishini asoslash.

Agar moliyaviy hisobotda baholashning bittadan ortiq asosidan foydalanilsa, masalan, asosiy vositalarning muayyan turini baholash chog'ida bir nechta asosdan foydalanilsa, qolgan aktivlar va majburiyatlar bo'yicha ham o'lchashning alohida asoslarini ko'rsatish zarur.

- Korxona kelajakda duch kelishi mumkin bo'lgan xatarlar va kelgusidagi pul mablag'i harakatini baholashga imkon beruvchi asoslarini e'tiborga olish.

- Korxona moliyaviy hisobotlarida ochilmay qolgan boshqa holatlar (ta'sischi va ruyxatga olingan idoraning yuridik manzili bilan amaliy faoliyat manzilidagi farq, xodimlarning o'rtacha soni va boshqalar).

Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash asosi va buxgalteriya hisobi bo'yicha hisob siyosati haqidagi axborot moliyaviy hisobotga izoxlar oldida alohida hisobot tarzida keltirilishi kerak.

Moliyaviy hisobotga yozilgan tushuntirish xati korxonaning hisob siyosatini yoritishi, uning mulkiy va moliyaviy holatini haqiqiy baholash uchun qo'shimcha ma'lumotlar bilan hisobotdan foydalanuvchilarni ta'minlashi lozim.

Tushuntirish xatida korxonaning moliyaviy hisoboti buxgalteriya hisobini yuritish qoidalaridan kelib chiqqan holda tuzilganligi ko'rsatilishi lozim (ayrim chetlanishlarni ham ko'rsatilib). Tushuntirish xatida har bir qoidadan chetlanishlarning sababi va natijasi alohida ko'rsatiladi.

Tushuntirish xati odatda shunday tuziladiki, u foydalanuvchiga moliyaviy hisobotlarni yaxshirok anglab etish va ularni boshqa korxonalarning moliyaviy hisoboti bilan qiyoslashga yordam beradi. Umuman, tushuntirish xatida quyidagi qo'shimcha ma'lumotlar yoritiladi:

- Korxonaning ijro va nazorat organlari tarkibining a'zolari (sharifi va mansabi) va ularga hisobot davrida tutilgan mukofot va boshqa imtiyozlar.

- Hisobot davrida ishlovchilarning urtacha yillik soni, shu jumladan asosiy toifalar bo'yicha.

- Ayrim nomoddiy aktivlar eskirishini ko'rsatgan xolda ularni hisobot davri oxiriga davr boshiga nisbatan uzgarishi to'g'risida ma'lumot.

- Ayrim moliyaviy kuyilmalarning hisobot davri boshi va oxiriga nisbatan uzgarishi to'g'risida ma'lumot.

- Debitor va kreditor karzlarning hisobot davri boshi va oxiriga nisbatan uzgarishi to'g'risida ma'lumot.

- Faoliyat turi va savdo bozorlari bo'yicha mahsulot, tovar, ish va xizmatlarning sotilishi xajmi to'g'risida ma'lumot.

- Ishlab chiqarish xarajatlari (muomila xarajatlari)ning tarkibi to'g'risida ma'lumot.

- Davr xarajatlarning tarkibi to'g'risida ma'lumot.

- Har kanday ta'minlangan majburiyatlarning berilishi va olinishi, korxona to'lovlari to'g'risida ma'lumot.

- Mahsulot ishlab chiqarish va sotish rejalari bajarilishining tahlili.

- Korxonaning hisobot davridagi moliya-xujalik faoliyatidagi kamchiliklar va ularni bartaraf qilish tadbirlari.

Tushuntirish xati korxona rahbari, tegishli mutaxassislar tomonidan imzolanib moliyaviy hisobot bilan takdim etiladi.

Paxta tozalash korxonalari moliyaviy hisobotiga tushuntirish xatida quyidagilar qo'shimcha xolda ko'rsatiladi:

- e'lon qilingan aktsiyalar soni;
- chiqarilgan haqi to'la to'langan, chiqarilgan, lekin haqi to'la to'lanmagan aktsiyalar soni;
- aktsiyalarning nominal qiymati;
- yilning boshida va oxirida haqi to'lanmagan aktsiyalar sonini kamayishi;
- aktsiyadorlik mablag'ining har bir toifasiga taaluqli huquqlar, afzalliklar va cheklashlar;
- jamiyatning o'ziga, xo'jalik yurituvchi sub'ektga qarashli shu'ba va uyushgan jamiyatlariga tegishli aktsiyalar.
- opsiyon va savdo kontrakti bo'yicha emissiya uchun zahiraga ajratilgan aktsiyalar, shu jumladan ularning muddatlari, mikdorlari va boshqalar.

Xar kanday jamiyatning tarakkiyoti ko'p jihatdan uning boshqaruv tizimini tegishli axborot manbalari bilan ta'minlanishiga bog'lik. Boshqaruvni axborot manbalari bilan ta'minlashda muhim o'rinni buxgalteriya hisobi va uning ma'lumotlari asosida tuziladigan moliyaviy hisobotlar egallaydi.

SHu asosda mamlakatimizni mustakillik yillarida buxgalteriya hisobi va hisobotni yangi darajaga ko'tarishda katta ishlar amalga oshirildi. Ular qatoriga Mamlakatimizda, qabul kilingan buxgalteriya hisobi to'g'risidagi (1996 y.), Auditorlik faoliyati to'g'risidagi (2000, 2002 y.) qonunlar, buxgalteriya hisobi (1998-2010 y.) va auditorlik faoliyatining milliy standartlari va ularga kiritilgan o'zgartirishlar, mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom (1999 y.), xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliya xo'jalik faoliyati

buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma (2002 y.), buxgalteriya balansi va moliyaviy hisobotni boshqa shakllarining yangilangan shakllari va boshqalarni kiritish mumkin.

Hozirgi kunda ham yuqoridagi me'yoriy xujjatlarni takomillashtirish ishlari davom etmokda.

Ushbu takomillashtirishlardan maqsad buxgalteriya hisobi va hisobotni bozor iqtisodiyoti talablariga hamda jahon standartlariga moslashtirishdan iborat. Ko'rilgan choralar va qabul qilingan me'yoriy hujjatlar asosida buxgalteriya hisobini yuritish va uning ma'lumotlari asosida tuziladigan hisobotlarni takomillashtirishda ijobiy siljishga erishildi.

Ma'lumki, moliyaviy hisobot xo'jalik yurituvchi sub'ekt alohida mustaqil xo'jalik sub'ektligi yoki xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning jamlangan guruxiga kirishidan qat'iy nazar ma'lum bir davrdagi faoliyatini ko'rsatuvchi moliyaviy axborotni taqdim etish usulidir. Moliyaviy hisobotning maqsadi – xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy ahvoli, faoliyati, moliyaviy ahvolidagi o'zgarishlar to'g'risidagi axborotni taqdim etishdan iborat.

Korxonaning moliyaviy hisoboti uning faoliyati haqidagi haqiqiy axborot manbai bo'lib xizmat qiladi. Unga bo'lgan talabni oshadi. agar mulk egalari, korxona ma'muriyati va boshqa foydalanuvchilar o'z faoliyati natijalarini yaxshilashga qaratilgan asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda boshqaruv qarorlarin moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida qabul qilsa.

3.2. “Juma” paxta tozalash korxonasi OAJning moliyaviy hisoboti shakllarini tahlili

Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari balans va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning yagona shaklini belgilamaydi, balki ularda ochib berilishi lozim bo'lgan minimal axborot hajmini tartibga soladi hamda ularni tuzishning umumiy tamoyillarini belgilaydi.

Xalqaro hisob standartlariga muvofiq hisobotni taqdim etishga doir asosiy talablar va qoidalarni birlashtiruvchi buxgalteriya balans modelini ishlab chiqildi hamda taklif etilgan.

Buxgalteriya balans modelida balans tuzishning barcha asosiy tamoyillarini aks ettiradi va xalqaro standartlarga muvofiq hisob yuritishning asosiy elementlarini o'z ichiga oladi.

Mazkur balansning to'rtinchi bo'limida mulkning ushbu qismiga nisbatan soliqqa tortishning o'zgarishi ehtimolini hisobga olgan holda «mulk qiymati» qatorlari ajratildi. «Maqsadli moliyaviy va tushumlar» moddasi «Uzoq muddatli majburiyatlar» bo'limida ko'rsatiladi. Shuningdek, mazkur qator balansining ushbu bo'limida yanada to'liq aks ettiriladi (3.2.1-3.2.2-jadvallar).

3.2.1-jadval.

“Juma” paxta tozalash OAJ ning 2013 yilda buxgalteriya balansini aktiv moddalarining tahlili

Mol-mulkning tarkibi	Yil boshiga		Yil oxiriga		O'zgarishi (+,-)		
	Summa, ming so'm	Sal-mog'i, %	Summa, ming so'm	Sal-mog'i, %	Summa-dagi, ming so'm	Sal-moqdagi, %	Yil boshiga nisbatan o'sishi, %
1	2	3	4	5	6=4-2	7=5-3	8=6\2*100
1. Uzoq muddatli aktivlar	1566968	5.66	1590024	7.39	+23056	+1.73	+1.47
2. Joriy aktivlar Shu jumladan:	26097321	94.01	19915236	92.61	-6182085	-1.73	-23.69
A) Tovar-moddiy zahiralar	23885257	86.34	16782451	78.04	-7102806	-8.3	-29.74
B) Pul mablag'lari va qisqa muddatli qo'yilmalar	359059	1,31	1595857	7.42	+1236798	+6.11	+3.44
V) Debitorlar	997977	3.6	719520	3.35	-278457	-0.25	-27.9
G) Kelgusi davr xarajatlari	855028	3.09	817408	3.8	-37620	+0.71	-4.4
Balans aktivining JAMI	276642892	100,0	21505260	100,0	-6159029	-	-22.26

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, biz tahlil qilayotgan "Juma" paxta tozalash OAJida o'rganilayotgan 2013 yilda jami aktivlar summasi 6159029 ming so'mga yoki 22.26 % ga kamaygan. Aktivlarning kamayishini salbiy baholagan holda, ma'lumotlarga e'tibor qiladigan bo'lsak, aktivlarning kamayishi asosan joriy aktivlarning 6182085 ming so'mga kamayganligi hisobiga bo'lgan. Korxonaning uzoq muddatli aktivlari ham 23056 ming so'mga ortganligini ijobiy baholamoq lozim. Joriy aktivlarning tarkibini o'rganadigan bo'lsak, 2013 yil oxirida yil boshiga nisbatan tovar-moddiy zahiralari 29.74% ga kamaygan, ya'ni bu 7102806 ming so'mni tashkil etadi. Aksionerlik jamiyatining debitorlik qarzlar ham yil oxiriga kelib 27.9% ga yoki 278457 ming so'mga kamayganligini ko'payganligi ijobiy baholamoq kerak. Chunki, debitorlarning qarzining bunday tartibda ortib borishi korxonaning aylanma mablag'larini aylanishini tezlashtiradi, to'lov qobiliyatini yashxilanishiga olib keladi. Korxona aktivlari tarkibida asosiy salmoqni tovar-moddiy zahiralari egallamoqda, ya'ni u 78.04 % ga yaqin aktivlar summasini tashkil etmoqda. Bu shundan dalolat beradiki, korxonada me'yordan ortiqcha tovar-moddiy zahirasi yaratilganligini hamda uning natijasida korxona joriy aktivlarini aylanishi sekinlashishini ko'rsatmoqda. Aksionerlik jamiyati ma'muriyati mavjud aktivlardan unumli foydalanish choralarini ko'rishi lozim deb hisoblaymiz.

3.2.2-jadval

"Juma" paxta tozalash OAJ ning 2013 yilda buxgalteriya balansini passiv moddalarining tahlili

Mol-mulkni tashkil topish manbaining tarkibi	Yil boshiga		Yil oxiriga		O'zgarishi (+,-)		
	Summa, ming so'm	Sal-mog'i, %	Summa, ming so'm	Salmo-g'i, %	Summa-dagi, ming so'm	Salmoq dagi, %	Yil boshiga nisbatan o'sishi, %
1	2	3	4	5	6=4-2	7=5-3	8=6\2*100
1. O'z mablag'lari-ning manbalari	1544840	5.58	2936628	13.65	+1391788	+8.07	90.09

2. Majburiyatlar. Shu jumladan:	26119449	94.42	18568632	86.35	-7550817	-8.07	-28.9
a) uzoq muddatli majburiyatlar	4059637	14.68	494000	2.29	-3565637	-12.39	-87.83
b) joriy majburiyatlar	22059812	79.74	18074632	84.06	-3985180	4.32	18.06
Balans passivining JAMI:	27664289	100,0	21505260	100,0	-6159029	-	-22,26

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, biz tahlil qilayotgan "Juma" paxta tozalash OAJda 2013 yilning boshiga nisbatan yil oxirida jami passivlari summasi 6159029 ming so'mga yoki 22,26 % ga kamaygan. Korxonada mol-mulkni tashkil etuvchi manbalarning bunday tartibda kamayishini salbiy holat sifatida baholamoq lozim. Ammo, ushbu manbalar qaysi manbalar hisobiga kamayganligiga alohida ahamiyat qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ya'ni manbalarning kamayishi o'z mablag'lari manbalari hisobigami yoki qarz manbalari hisobiga ekanligini aniqlash lozim. Aksionerlik jamiyatining ma'lumotlaridan ko'rinadiki, korxonada joriy yil oxirida o'z mablag'lari manbalari yil boshiga nisbatan 1391788 ming so'mga yoki 90.09 % ga o'sgan. Bunday natijalarni korxona uchun ijobiy deb baholamoq lozim. Chunki, o'z mablag'larining manbalarini ko'payishi korxonaning moliyaviy mustaqilligini ortishiga, to'lov qobiliyatining yaxshilanishiga hamda korxonaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga olib keladi. Ma'lumotlardan ko'rinadiki, korxonada joriy yil oxiriga majburiyatlar summasi 7550817 ming so'mga yoki 28.9 % ga pasaygan. Bu esa majburiyatlarning umumiy passivlarda tutgan salmog'ini 8.07 % ga kamaytirgan. Bundan ko'rinadiki korxonaning to'lov likvidligi ancha ko'tarilgan. Balans passividagi moddalarga e'tibor qiladigan bo'lsak, asosiy salmoqni, ya'ni 13.65 foizni o'z mablag'lari manbalari tashkil etmoqda. Bu korxonaning mustahkam moliyaviy barqaror ekanligidan dalolat beradi. Mazkur korxonada hisobot davrida joriy majburiyatlari,

ya'ni kreditorlik qarzlari bir qadar kamayganligini ijobiy holat sifatida baholamoq lozim.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot xo'jalik yurituvchi sub'ektning hisobot davridagi moliyaviy faoliyatini ko'rsatadi va bu faoliyatning turli jihatlarini tushunishga imkon beradigan usuldan iborat bo'ladi. Moliyaviy natijalarning shakllanish bo'yicha tahlilni quyidagi 3.2.3-jadval ma'lumotlari asosida berish mumkin.

3.2.3-jadval

“Juma” paxta tozalash OAJni 2013 yilda moliyaviy natijalarning tarkibi, tuzilishi va dinamik o'zgarishlarining tahlili

Ko'rsatkichlar	Yil boshiga	Yil oxiriga	O'zgarishi (+,-)
	Summa, ming so'm	Summa, ming so'm	Summadagi
1	2	4	6
1.Mahsulot (ish, xizmat) lar sotishdan olingan yalpi foyda	3140761	5427085	+2286324
2. Davr xarajatlari va asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan daromad va xarajatlar	3035184	3333179	+297995
3.Asosiy faoliyatining foydasi	105577	2093906	+198829
4.Umumxo'jalik faoliyatining foydasi (zarari)	106577	2095390	+1988813
5.Daromad solig'i to'lagunga qadar foyda (zarar)	106755	2095330	+1988753
6.Daromad (foyda)dan soliq va boshqa soliqlar	9608	188586	+169370
7.Hisobot davridagi sof foyda yoki zarar	97147	1966744	+1869597

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, biz tahlil qilayotgan “Juma” paxta tozalash OAJ da 2013 yilda 2012 yilga nisbatan 1869597 ming so'mga sof foydasi ko'paygan. Sof foydaning ko'payishiga asosan, asosiy ishlab chiqarish faoliyatining yalpi moliyaviy natijasi o'tgan yilga nisbatan 1988329 ming so'mga

ortishi ta'sir etgan. Ushbu omillar korxonaning mahsulot sotishdan olgan yalpi foydasining 2286324 ming so'mga ortganini ham qoplab yubordi. Demak, to'langan soliqlarning keskin ortishiga qanday omillar sabab bo'lganligini ham o'rganib chiqish lozim bo'ladi.

Hisobga olish amaliyotiga joriy etilgan yangi shakldagi «Pul mablag'larining harakati» hisoboti barcha korxonalar va moliya institutlarining moliyaviy hisobotlari tarkibiga kiritilgan va moliyaviy hisobotdagi ma'lumotlarning foydaligini oshirishga qaratilgan. Pul mablag'larining harakati to'g'risidagi hisobot boshqa hisobot shakllari bilan birgalikda korxonaning eng likvid aktivlaridagi o'zgarishlarni, uning moliyaviy tuzilmasini (jumladan likvidlik va to'lovga layoqatliligini), korxonalarning qiyoslama baholash maqsadida kelgusi pul oqimlarining joriy qiymatini modellashtirish imkonini beradigan doimiy ravishda o'zgaruvchi tashqi va ichki omillar sharoitida pul oqimlari harakatini tartibga solish layoqatini baholash va tushunishga xizmat qiluvchi axborot taqdim etilishini ta'minlaydi.

3.2.5-jadval.

“Juma” paxta tozalash OAJ ning 2012 yilda xo'jalik faoliyatidagi pul mablag'lari harakatini tahlili

Ko'rsatkichlar	Satr raqami	Pul mablag'lari kirimi		Pul mablag'lari chiqimi	
		Summa, ming so'm	Jamiga nisbatan salmog'i, %	Summa, ming so'm	Jamiga nisbatan salmog'i, %
1	2	3	4	5	6
1.Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan kelib tushgan pul mablag'lari	010	33654624	99,98	-	-
2. Material, tovar, ish va xizmatlar uchun mol etkazib beruvchilarga to'langan pul mablag'lari	020	-	-	2775950	91.58
3. Xodimlarga va ular nomidan to'langan pul mablag'lari	030	-	-	2551572	8.42
4.Operation faoliyatning boshqa pul tushumlari va	040	7316	0.02	-	-

to'lovlari					
JAMI:	-	33661940	100,0	30311122	100,0
Opresion faoliyatning sof pul kirimi yoki chiqimi	050	3350818	9,95	-	-

Jadval ma'lumotlariga ko'ra biz tahlil qilayotgan "Juma" paxta tozalash OAJ 2013 yilda, xo'jalik (operasion) faoliyatidan pul mablag'larining sof kirimi 3350818 ming so'mni tashkil qilgan. Korxonada jami kirim 33661940 ming so'mni tashkil qilib, uning 99,98 % mahsulotlarni sotishdan kelib tushgan pul mablag'lari hisobiga, qolgan 0,02 % esa operasion faoliyatning boshqa pulli tushumlari hisobiga to'g'ri kelgan. Korxonaning xo'jalik faoliyatidagi jami sarflar esa 30311122 ming so'mni tashkil qilib, uning 91,58 % mol etkazib beruvchilarga to'langan pul mablag'lari, 8,42 % xodimlarga to'langan pul mablag'lari hisobiga sarf qilingan. Korxonada pul mablag'larining xo'jalik (operasion) faoliyatidagi sof kirim natijasi 3350818 ming so'mni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich umumiy tushumning 9,95 % ini tashkil qilgan. Bunday natijalarni korxona uchun ijobiy deb baholamoq lozim.

O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti sharoitida pul oqimlari to'g'risidagi hisobot ma'lumotlari moliyaviy hisobotda ochib berilishi lozim.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot uchun zarur ma'lumotlar bevosita buxgalteriya balansidan va boshqa moliyaviy hisobotlardan (masalan, qisqa muddatli bank kreditlarining ko'payishi to'g'risidagi), shuningdek to'g'ridan-to'g'ri buxgalteriya yozuvlaridan (masalan, bevosita usuldan foydalanishdagi operasion faoliyat oqimlari) ham olinishi mumkin. Pul mablag'larining harakati to'g'risidagi ma'lumotlarni shakllantirishda yuzaga kelgan hisob yuritish tartibiga sezilarli o'zgartirishlar kiritishni talab qilmaydi. Vaholanki, ularning hisobotga kiritilishi foydalanuvchilarga qarorlar qabul qilishda qimmatli ma'lumot rolini o'ynagan bo'lar edi.

Pul oqimi to'g'risidagi hisobot zarur bo'lgan hollarda korxonaga yuqori daromad keltiradigan loyihalarni loyihalashtirish uchun zarur manbadir.

Korxonaning boshqaruv rahbariyati uchun bu hisobot korxonaning qisqa muddatli kreditorlik qarzlarini uzishga mavjud mablag'ni etarli yoki etishmasligi, hissadorlarga to'lanadigan dividendlar miqdorini ko'paytirish yoki kamaytirish hamda korxonani investisiya va moliya masalalari bo'yicha siyosat kabi masalalarni hal etish zarurdir.

Korxona rahbariyati pul mablag'lari harakatini boshqara olish, korxona schyotidan kreditor qarzlarni uzish hamda hissadorlarga dividend to'lash, qo'shimcha moliyalashtirish maqsadlari uchun etarli miqdorda pul mablag'larini jamlash imkoniyatlari aniqlanadi. Bu hisobot shakli orqali sof foyda bilan pul mablag'lari harakati o'rtasidagi bog'liqlik va tafovutlari aniqlanishi mumkin. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot korxonani investisiya va moliyaviy faoliyati natijalarini o'zida aks ettiradi (3.2.6-jadval).

3.2.6-jadval

“Juma” paxta tozalash OAJ ning 2013 yilda pul oqimlarini tahlili

Ko'rsatkichlar	Pul mablag'lari kirimi		Pul mablag'lari chiqimi	
	Summa, ming so'm	Jamiga nisbatan salmog'i, %	Summa, ming so'm	Jamiga nisbatan salmog'i, %
1	2	3	4	5
1. Pul va unga tenglashtirilgan mablag'larning hisobot yil boshiga qoldig'i	359059	1.07	-	-
2. Xo'jalik faoliyatida pul mablag'larining kirimi (+), chiqimi (-)	3661940	100.0	30311122	93.48
3. To'langan soliqlar	-	-	2114020	6.52
4. Investisiya faoliyatidagi sof pul oqimlarining kirimi yoki chiqimi	-	-	-	-
5. Moliyaviy faoliyatdagi sof kirim yoki chiqim	-	-	-	-
Jami pul mablag'larining harakati:	3661940	100,0	32425142	100,0
Sof ko'payish yoki kamayish	1595857	4.74	-	-

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari asosida biz tahlil qilayotgan "Juma" paxta tozalash OAJ ning 2013 yilda pul mablag'lari harakatiga baho berishimiz mumkin bo'ladi. Ma'lumotlardan ko'rinadiki, joriy davrda korxonada jami pul mablag'larining kirimi 3661940 ming so'mni tashkil etib, shundan 100 % xo'jalik (operasion) faoliyatidagi pul mablag'larining kirimiga to'g'ri kelmoqdi. Korxonaning jami pul mablag'lari chiqimi esa 32425142 ming so'mni tashkil qilib, shundan, 30311122 ming so'mi yoki 93,48 % xo'jalik faoliyatidan bo'lgan pul mablag'larining chiqimiga, 2114020 ming so'mi yoki 6,52 %i esa to'langan soliqlar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Buning natijasida korxonaning pul mablag'lari qoldig'i yil boshidagi 359059 ming so'mdan yil oxiriga kelib 1595857 ming so'mga ko'paygan. Bunday natijalarni umuman olganda korxona uchun ijobiy baholasak ham bo'ladi. Shuni xulosa qilib aytish mumkinki, korxonada pul mablag'larining harakati faqatgina asosiy xo'jalik faoliyatida bo'lgan.

"Juma" paxta tozalash OAJ ning 2013 yilagi xususiy kapitali va uning dinamikasini tahlili 3.2.7-jadvalda keltirilgan.

3.2.7-jadval

"Juma" paxta tozalash OAJ ning 2013 yilda xususiy kapitali va uning dinamikasini tahlili

Ko'rsatkichlar	Yil boshiga qoldiq	O'zgarishi		Yil oxiriga qoldiq
		ko'payishi	kamayishi	
1	2	3	4	5
1. Ustav kapitali	106840.5	491466.3	-	598306.8
2. Qo'shilgan kapital	-	-	-	-
3. Rezerv kapitali	733033	-	-	733033
4. Taqsimlanmagan foyda	637174	1725949	-	2363123
5. Xususiy kapital bilan qoplanmagan zarar	-	-	-	-
JAMI:	1477047.5	2217415.3	-	3694462.8

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, biz tahlil qilayotgan "Juma" paxta tozalash OAJ 2013 yilning xususiy kapitali yil boshiga nisbatan yil oxirida 2217415,3 ming so'mga oshgan. Bu natija korxona uchun ijobiy deb qaralishi lozim. Chunki bu miqdor yil boshiga nisbatan salkam 1,5 barobarga yaqin oshgan.

Moliyaviy hisobot shakllari ichida tushuntirish xatini to'ldirilish tartibi erkin bo'lganligi sababli uning shakli va asosiy elementlari tarkibini taklif etamiz.

Tushuntirish xatining tarkibi:

- xo'jalik sub'ektining tashkiliy tuzilmasi tahlili;
- ma'lumotlarni davrlar bo'yicha taqqoslash uchun tuzatish va tahlil qilish;
- faoliyatning xo'jalik va moliyaviy natijalariga ta'sir qiluvchi sabablarni tahlil qilish;
- moliyaviy hisobotning muhim moddalari;
- hisobot sanasidan keyingi hodisalar va xo'jalik faoliyatining shartli faktlari;
- ekologiya xarajatlari tahlili;
- faoliyat turlari va geografik sotish bozorlari bo'yicha moliyaviy natijalar;
- muhim tahliliy ko'rsatkichlarni hisoblash tartibi va dinamikasi;

Tushuntirish xatini tayyorlash uchun nafaqat davriy hisobotlar ma'lumotlaridan, balki boshqaruv hisobi registrlari, qimmatli qog'oz emissiya prospektlari, aksiyadorlar ro'yxati, segmentlar bo'yicha ichki hisobotlar ma'lumotlari va boshqalardan foydalaniladi. Korxonalar tushuntirish xatida beriladigan axborot hajmi va uning shaklini amaldagi me'yoriy hujjatlar talablaridan kelib chiqqan holda mustaqil ravishda belgilaydilar.

Tushuntirish xatining asosiy elementlari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

Xo'jalik sub'ektining tashkiliy tuzilmasi tahlili. Korxona va alohida bo'linmalar bo'yicha boshqaruv organlarining tarkibi va vakolatlari, ularning funksiyalari to'g'risidagi ma'lumotlar kiritiladi, sub'ektning birlashtirilgan korxonalar guruhidagi maqomi (asosiy, tobe, sho'ba) ko'rsatiladi. Aksiyadorlik jamiyati uchun bo'limda chiqarilgan va to'liq to'langan aksiyalar soni, chiqarilgan, biroq to'lanmagan yoki qisman to'langan aksiyalar soni, aksiyadorlik jamiyati, sho'ba va tobe jamiyatlar tasarrufida bo'lgan aksiyalarning nominal qiymati to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'rsatish lozim. Bo'limda ko'rsatilgan materiallar

o'zaro bog'liq korxonalar kapitalining integrasiya darajasi, korxona ustav kapitalining amaldagi miqdori, uning to'lanish darajasi, emission daromad miqdori, uning jamiyat tomonidan chiqarilgan barcha xususiy aksiyalar nominal qiymatidagi ulushini tavsiflashi mumkin.

Emission daromadning ahamiyati korxonaga quyilma qilishning boshqa investisiyalash ob'ektlariga nisbatan jozibadorligi bilan uzviy bog'liq. To'langan kapitaldagi emission daromad ulushi investorlar kutadigan daromad normasini aniqlash uchun baza rolini o'taydi. Emission daromad (D_e) foizi quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$D_e = \frac{\text{Emission daromad}}{\text{To'langan ustav kapitali} + \text{Emission daromad}} \times 100\%$$

D_e qiymatini tahlil qilish uchun amaldagi daromad normasiga (aksiyadorlik kapitalidagi investisiyalar rentabelligi - R_i) doir solishtirma ma'lumotlarni jalb etgan holda baholash lozim. Uni quyidagi formula yordamida hisoblash mumkin:

$$R_i = \frac{\text{Aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanmagan sof foyda}}{\text{To'langan ustav kapitali}} \times 100\%$$

R_i ning D_e dan kam bo'lishi emitent uning aksiyalariga mablag' sarflagan investorlar umidlarini oqlamasligini ko'rsatadi. Korxonaning ustav kapitalini shakllantirish xususiyatlari uning to'lanish darajasi bilan belgilanadi:

$$S_{to'l} = \frac{\text{Joylashtirilgan kapital}}{\text{Korxona chiqargan aksiyalarning soni}} \times 100\%$$

$S_{to'l}$ - darajasining yuqori bo'lishi korxona aksiyalarining investision jozibadorligi etarlicha ekanligini tasdiqlaydi, kichik bo'lishi - korxonaning

qimmatli qog'ozlarini joylashtirishda muammolar mavjudligini ko'rsatadi. Axborot tushuntirish xatida quyidagi shakldagi jadval ko'rinishida bayon qilinishi mumkin.

Tushuntirish xatining faoliyatning xo'jalik va moliyaviy natijalariga ta'sir qiluvchi sabablarni tahlil qilish. Salbiy omillarning ta'siri va ijobiy tashqi (xaridorlar talabining o'sishi, bank kredit foizlari kamayishi) va ichki (mahsulot sifatining oshishi, boshqaruv tuzilmasining takomillashuvi va b.) omillardan to'liq foydalanish aks ettiriladi. Bunda soliq to'lovlari ko'zda tutilgan imtiyozlardan oqilona foydalanilishi byudjet bilan hisob-kitoblarni optimallashtirish imkonini beradigan puxta o'ylangan hisob siyosati bilan uzviy bog'liqlikda ko'rib chiqiladi. Soliqqa tortishda mahsulot sotishdan keladigan tushumni to'lovga ko'ra aniqlash usulidan foydalanuvchi korxona tushuntirish xatida taqdim etilgan deklarasiyalar va hisoblab qo'shish usuli bo'yicha hisob ma'lumotlari asosida amalga oshirilishi lozim bo'lgan to'lovlar to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'rsatishi zarur. Ushbu ma'lumotlar mavjud soliq turlari bo'yicha farq summaları ko'rsatilgan holda aks ettiriladi.

Agar hisobot yilida olingan moliyaviy natija korxona tasarrufida qolgan foyda hisobidan majburiy xarajatlarni (muayyan soliq turlari, yig'imlar, byudjet va byudjetdan tashqari fondlarga jarima sanksiyalari, imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar) moliyalash uchun etarlicha bo'lmasa, axborot foydalanuvchilari uchun ushbu to'lovlar manbai masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni tushuntirish xatida tegishli hisoblashlar manbai rolini o'taydigan xususiy kapital tarkibiy qismlari to'g'risida ko'rsatma berilishi zarur.

Tushuntirish xatining hisobot sanasidan keyingi hodisalar va xo'jalik faoliyatining shartli faktlari buxgalteriya balansi, foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot moddalari to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilishi mumkin. Ushbu ma'lumotlar №1 va №2 shakllar yakunlari umumiy summasida muhim hisoblanadi. Tegishli ma'lumotlarning umumiy yakuniga nisbati 5 foizdan kam bo'lmagan summalar muhim hisoblanadi: buxgalteriya balansida mulk moddalari va majburiyatlar ulushlari balans valyutasida hisoblanadi; №2 shaklda nafaqat

foydani shakllantirish manbalarining har birining ulushi (joriy, investision va moliyaviy faoliyat), balki korxona tomonidan tasarruf etiladigan va davlat daromadi hisobiga o'tkaziladigan summalarning nisbati ham baholanishi zarur. Hisobotning mavjud moddalari to'g'risidagi ma'lumotlar boshqa izohlarda: xususiy kapital to'g'risidagi hisobotda, pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobotda yoki buxgalteriya balansiga ilovada takrorlanmasligi lozim.

Foydalanuvchilar uchun turli shakllarning o'zaro bog'liq ma'lumotlarini taqqoslash imkoniyatini berish, qo'shimcha ko'rsatkichlarni hisoblash muhim. Xususan, korxona tasarrufida salmoqli moliyaviy qo'yilmalar bo'lgan holda ko'rsatilgan aktivlarda joylashtirilgan mablag'larning daromadlilikini aniqlash imkonini beradigan ma'lumotlarni hisob-kitob qilish maqsadga muvofiq.

Tushuntirish xatining hisobot sanasidan keyingi hodisalar va xo'jalik faoliyatining shartli faktlari hisobot sanasidan keyingi hodisaning qisqa tavsifi va uning pul ifodasidagi oqibatlarini o'z ichiga oladi. Agarda haqqoniy baholash imkoniyati bo'lmasa tegishli hisob-kitoblarni amalga oshirishni rad etish sabablari ko'rsatilishi lozim. Tushuntirish xatida shartli faktlar sababli yuzaga kelgan oqibatlarni tushuntirishda ehtiyotkorlik tamoyiliga amal qilish lozim. Unga muvofiq har bitta shubhali holatda aktivlar (majburiyatlar)ning prognozlanayotgan holati yoki kutilayotgan moliyaviy natija nuqtai- nazaridan eng yomon oqibatga olib keluvchi variant ko'rib chiqilishi lozim. Ayni paytda ma'lumotlarni qonunchilikda ko'zda tutilgan hajmda ochib berilishi korxonaga zarar etkazishi mumkin bo'lsa, korxona tushuntirish xatida shartli dalil va sababning umumiy tavsifini berish bilan cheklanishi mumkin.

Faoliyat turlari va geografik sotish bozorlari bo'yicha moliyaviy natijalar. Foydani prognozlash uchun faoliyat segmentlari va alohida bo'linmalarning umumiy moliyaviy natijadagi ulushi bo'yicha amalga oshirilgan qo'shimcha tahliliy ma'lumotlarni aks ettirishni taklif qilamiz. Muayyan foydalanuvchilar guruhlarining korxonaning aniq iqtisodiy sohadagi faoliyatiga qiziqishini hisobga oladigan bo'lsak, buxgalteriya hisobotining nafaqat umumlashtiruvchi, balki

alohida ko'rsatkichlariga ham tayangan holda investisiyalar tavakkalchiligi darajasini baholash uchun ularning so'rovlarini imkon qadar to'liq qondirish zarur.

Muhim tahliliy ko'rsatkichlarni hisoblash tartibi va dinamikasi korxonaning mulkiy ahvoli va hisobot davridagi faoliyati natijalari, shuningdek rejalashtirilayotgan rivojlanish yo'llari va ularni amalga oshirish imkoniyatlari to'g'risidagi qo'shimcha ma'lumotlarni aks ettiradi. Buxgalteriya hisobotidan foydalanuvchilar ushbu bo'limdan moliyaviy tahlil jarayonini amalga oshirish, xususan, qo'llanilayotgan hisoblash uslublari, xo'jalik faoliyatining asosiy moliyaviy-iqtisodiy tavsiflarini (taqqoslanish ta'minlangan taqdirda o'tgan yillardagi hisob-kitoblar natijalarini ko'rsatgan holda) ta'riflash uchun zarur qo'shimcha ma'lumotlarni olishlari lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Korxonalar moliyaviy hisoboti buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot, asosiy vositalar harakati to'g'risidagi, pul oqimlari to'g'risidagi, xususiy kapital to'g'risidagi hisobot, buxgalteriya balansiga ilova va tushuntirish xatidan iborat. Moliyaviy hisobotning har bir elementlari mustaqil ma'noga va axborot ko'lamiga ega bo'lib, ular birgalikda ichki foydalanuvchilarga tahlil qilish va tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilish hamda tashqi foydalanuvchilarga tahlil uchun zarur bo'lgan ishonchli va haqqoniy moliyaviy axborotni taqdim etishi lozim.

Tadqiqot ishida Samarqand viloyatidagi "Juma" paxta tozalash korxonasi misolida moliyaviy hisobotini takomillashtirish masalalari atroflicha o'rganilib quyidagi xulosa va takliflar qilindi.

1. Korxonalar taraqqiyoti ko'p jihatdan uning boshqaruv tizimini va boshqa axborotdan foydalanuvchilarni axborot manbalari bilan ta'minlanishiga bog'liq. Axborot manbalari bilan ta'minlashda muhim o'rinni moliyaviy hisobotlar egallaydi. Mamlakatimizda moliyaviy hisobotni yangi darajaga ko'tarish uchun qabul qilingan me'yoriy hujjatlar asosida moliyaviy hisobotlarni takomillashtirishda ijobiy siljishga erishildi. Hozirgi kunda me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish ishlari davom etmokda. Ushbu takomillashtirishdan maqsad moliyaviy hisobotni iqtisodiyot talablariga hamda jahon standartlariga moslashtirish lozim. Moliyaviy hisobotning maqsadi – xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy ahvoli, faoliyati, moliyaviy ahvolidagi o'zgarishlar to'g'risidagi axborotni taqdim etishdan iborat.

2. Moliyaviy hisobot nafaqat aniq iqtisodiyot sub'ekti faoliyati bilan tanishtiruvchi, balki tashqi iqtisodiy muhit ko'rsatkichlarining barcha sohalarini yorituvchi manba bo'lib, korxona faoliyat natijalarini iqtisodiy sharoit talablari va mezonlariga muvofiqlik darajasi to'g'risida ma'lumot beruvchi ishbilarmonlik axborotiga talab kundan-kunga oshib bormoqda. Biroq moliyaviy hisobot

iqtisodiyot sub'ekting bozordagi ahvolini baholash borasidagi jihatlari, foydalanuvchilarni ishonchli moliyaviy hisobot axborotlariga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlashga, iqtisodiy muhitni aniqlashga imkon beradi. Korxonalarining hisob siyosatidagi tafovutlar sababli yuzaga keladigan axborotlar xilma-xilligini moslashtirishga qaratilgan.

3. Paxta tozalash korxonalarida buxgalteriya hisobi yuritish, moliyaviy hisobotni tayyorlash va moliyaviy hisobotni tashkil etish amaldagi me'yoriy hujjatlar: "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi, buxgalteriya hisobining milliy standartlari va boshqa tegishli hujjatlar asosida olib borilmoqda. Lekin, korxonalarda hisob siyosati ishlab chiqilmagan. Shuning uchun, korxonalarda hisob siyosati ishlab chiqish lozim. Bu nafaqat korxonada moliyaviy hisobotini tartibga solib qolmasdan, balki korxonada butun buxgalteriya hisobini tartibga soladi.

4. Moliyaviy hisobot tahlili buxgalteriya hisobi jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Buxgalteriya hisobotining bosh vazifasi - korxonaning mulkiy va moliyaviy ahvoli, shuningdek faoliyatining moliyaviy natijalari to'g'risida haqqoniy tasavvur hosil qilishi lozim. Korxonaning moliyaviy ahvolini joriy va uzoq muddatli to'lovga layoqatlilik yoki kapital tarkibi, ishbilarmonlik faolligi va faoliyatning daromadlilikini ko'rsatadi. Korxonaning moliyaviy ahvolini ifodalovchi ushbu mezonlar buxgalteriya hisobotining bosh elementi bo'lgan buxgalteriya balansida o'zaro bog'liq holda aks ettiriladi.

5. Tahlil natijasida xalqaro hisob standartlariga muvofiq hisobotni taqdim etishga doir asosiy talablar va qoidalarni birlashtiruvchi buxgalteriya balans modelini ishlab chiqildi hamda taklif etilmoqda.

6. Pul mablag'lari harakatini tahlil qilish moliyaviy ahvol va moliyaviy natijalarni tahlil qilish o'rtasidagi tahliliy ish hisoblanadi. Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobotdagi umumlashtirish ob'ekti korxonaning bank schyotlari va kassadagi pul mablag'lari hisoblanadi. Ushbu hisobotni tuzishda pul mablag'larining ekvivalentlari ham pul mablag'lariga tenglashtiriladi. Pul

mablag'lari va ularning ekvivalentlarining muomalaga kirib kelishi va chiqib ketishi korxonaning operasion, investision va moliyaviy faoliyatdagi pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobotda ochib beriladigan pul oqimlarini tashkil qiladi.

Shunday qilib, paxta tozalash korxonalari moliyaviy hisobotini takomillashtirish bo'yicha kiritilgan takliflar korxonada ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan birga, moliyaviy hisobot korxonalarni boshqarish tizimidagi rolini oshirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.O'zbekiston Respublikasi Qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi.-T.: O'zbekiston, 1992 yil.
2. O'zbekiston Respublikasining “Korxonalar to'g'risida”gi Qonuni, 1991 yil 15 fevral.
3. O'zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to'g'risida”gi Qonuni. 1996 yil 30 avgust.-T.: Adolat, 1996 yil.
4. O'zbekiston Respublikasi “Auditorlik faoliyati to'g'risida” qonuni.(Yangi tahrirda), 2000 yil 26 may.
5. Buxgalteriya hisobiga doir nizomlar.-T.: 2007 yil
6. Buxgalteriya hisobi milliy standartlar to'plami.-Toshkent: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2005yil.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Statistik, soliq, moliyaviy hisobotlarni, litsenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib tamoyillarini tubdan qisqartirish chora – tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni. 2012y. 29-son.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma'ruzalari:

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yunalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi" ma'ruzasi. Xalq so'zi gazetasi. 19.01.2014.
9. I.A.Karimov “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada Yuksaltirishdir” - Toshkent.: “O'zbekiston”, 2010 yil, 35-b.
10. I.A.Karimov “Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini

ta'minlash - bizning oliy maqsadimiz".-T.: O'zbekiston, 2009 yil, 280-b.

11. I.A.Karimov "Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish". -T.: O'zbekiston, 2009 yil.

12. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat engilmas kuch". -T.: 2009 yil.

13. "Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida".-T.: O'zbekiston, 2008 yil.

3. Kitob va turkum nashrlari.

Kitoblar, monografiyalar, darsliklar, maqolalar to'plami:

14. Vahobov A. va boshqalar Moliyaviy va boshqaruv tahlili. -T.: Sharq, 2013. -224 b.

15. Xashimov A.A., Majidov A.A. Pahta tozalash korhonalarida buxgalteriya hisobi. – T.: "Sharq" nashriyoti, 2013y.

16. A.A.Abduganiev "Boshqaruv hisobini tashkil etish muammolari, ularning yechimlari". T.: TMI, 2003 yil, 275-b.

17. S.A.Ibragimov, I.Ochilov, I.Qo'ziev, N.Rizaev, "Moliyaviy va boshqaruv hisobi".-T.: Iqtisod va moliya, 2008 yil, 290-b.

18. V.E. Kerimov "Upravlencheskiy uchet". M.: ITK "I.K.Dashkov", 2004 god, 460-str.

19. A.X. Pardaev, B.A. Xasanov. "Boshqaruv hisobi". T.: Akademiya, 2010 yil, 176-b.

20. A.X.Pardaev Ch.Ch.Kostaev. "Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy natijalarni hisobi va tahlili". T.: - Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2006 yil, 231-b.

21. A.A.Karimov va boshqalar "Buxgalteriya hisobi". T.: Sharq, 2004 yil, 386-b.

22. B.A. Xasanov, A.A.Xashimov "Boshqaruv hisobida byudjetlashtirish"

(o'quv qo'llanmasi). T.: O'quvchi, 2009 yil, 5-b.

23. B.A. Xasanov "Boshqaruv hisobi: Nazariya va uslubiyot". T.: Moliya, 2003 yil. 248-b.

4. Dissertasiya va avtoreferatlar.

24. A.A.Abduganiev "Boshqaruv hisobini tashkil etish muammolari, ularning yechimlari". - i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoreferati -T.: TMI, 2007 yil, 124-b.

25. A.I.Alikulov. "Sovershenstvovanie ucheta zatrat na proizvodstvo, pererabotku i ischeslenie sebestoimosti produktsii xlopka-sirtsa v xlopkovom komplekse". Dis.kand.ekon.nauk, Samarkand, 1993 god, 121-str.

26. N.X.Xasanov. "Buxgalterskiy uchets i analiz finansovix rezultatov na sovmetnix predpriyatiyax Respubliki Uzbekistan". Dis.kand. ekon.nauk.-T.: 1995 god, 179-str.

27. B.Yu.Maxsudov. "Organizatsiya i usulika upravlencheskogo ucheta (na primere xlopkoochistitel'noy promishlennosti Respubliki Uzbekistan)". Avtoreferat. kand.ekon.nauk.-T.: 1997 god. 22-str.

28. "Juma" OAJning 2012-2013 yillardagi yillik hisoboti.

5. Internet ma'lumotlari

29. <http://www.nalog.uz>

30. <http://www.norma.uz>

31. <http://www.tsue.uz>

32. <http://www.account.ru>

33. <http://www.analisest.ru>

34. <http://www.cost management.ru>

ILOVALAR